

MUNDARIJA

KIRISH..... Ошибка! Закладка не определена.

I BOB. TARJIMON VA UNING TARJIMA JARAYONIDA TUTGAN

O'RNI

- 1.1. Tarjimon tushunchasi 8
- 1.2. Tarjima san'ati va tarjimonlik mahorati 13
- 1.3. Tarjimada noyob so'zlarni qo'llash 17

I Bob bo'yicha xulosa 22

II BOB. TARJIMA FAOLIYATIDA TARJIMONNING USLUBI VA NUTQ MADANIYATI

- 2.1. Tarjima va uning nutqiy faoliyatida jumlar va ularning talqin qilinishi.. 25
- 2.2. Tarjimonning nutq faoliyatida ijodkorlik.....29
- 2.3. Tarjimonning psixologik mahoroti 32

II Bob bo'yicha xulosa 36

III BOB. O'ZBEKISTONDA TARJIMASHUNOSLIK VA UNING FAOLIYATI

- 3.1. O'zbekistonda tarjima tarixi 38
- 3.2. Gid tarjimonlik faoliyatida -madaniyat..... 43
- 3.3 Tarjimashunoslikning hozirgi kundagi faoliyati..... 50

III Bob bo'yicha xulosa..... 53

XULOSA 55

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI..... 57

ILOVA

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqillikni qo‘lga kiritgandan so‘ng, jamiyatimiz hayotida har tomonlama ulkan muvaffaqiyotlarning keng ko‘lamli bo‘lishi uchun beqiyos imkoniyatlarni yaratib berdi. Bundan imkoniyatlar jadal sur‘atlar bilan rivojlanib borayotgan xalqimiz hayotining barcha sohalarida namoyon bo‘lmoqda.

Ta‘lim tizimida keng ko‘lamli islohotlarning amalga oshirilishida alohida ahamiyat qaratilayotgani, barkamol avlodni shakllantirish, Respublikamiz kelajagining poydevorini mustahkamlash masalasi eng dolzarb bo‘lib borayotganligi quvonarli holdir. Shu bois, mazkur jarayonni yanada yaxshilash va chuqurlashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining “ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni va “kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) qabul qilindi. Shuningdek, ta‘lim tarbiya, kadrlar tayyorlash masalalari bo‘yicha bir qator tarmoq dasturlari qabul qilindi.

“Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro‘-e‘tibori avvalo farzandlarimizning o‘nib-o‘sib, ulg‘ayib, qanday inson bo‘lib hayotga kirib borishiga bog‘liqdir. Biz bunday o‘tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak ”.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, bugungi kunda ingliz tili umumjahon va xalqaro aloqalar tiliga aylandi. O‘zbekiston jahon hamjamiyatiga integratsiyalasharkan, mamlakatimizda ham ingliz tilining nufuzi, ahamiyati va bu tilga bo‘lgan talab yanada oshib bormoqda. Shuningdek, xalqaro tarmoq (internet) materiallarini, ko‘plab fan texnika ma‘lumotlarini ingliz tilida topish mumkin. Biz ingliz tilini nafaqat mamlakatimiz rivojiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan ilmiy yangiliklar, xalqaro muloqot uchun o‘rganamiz balki, mamlakatimiz tarixi buyuk ajdodlarimiz haqida ma‘lumot berish, an‘analarimiz, madaniyatimizni targ‘ib qilish uchun ham o‘rganishimiz zaruratga aylandi. Shu sababli ham, ingliz tilining ta‘lim sohasida ahamiyati oshdi.

Bugungi zamonaviy pedagog axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalana olgan holda, o'qitishning ilg'or uslublarini joriy eta oladigan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarda erkin so'zlasha olishiga, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishiga imkoniyat ochib berish bu har birimizning vazifamizdir.

Xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirish uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida Yurtboshimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov tomonidan 2012-yil dekabr oyida "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident Qarori qabul qilindi **Mavzuning dolzarbligi.** Mamlakatimizda ingliz tilining ahamiyati va uni tatbiq etish shu qadar muhim ekan, ushbu tilni har tomonlama chuqur o'rganish ham muhimdir. Tarjimon uchun til o'rganish bu faqatgina nazariy bilimlari bilangina chegaralanib qolmasdan balki buning amaliy shuningdek, tarjimon darajasida erkin so'zlasha oladigan va uning notiqlik san'ati darajasida gapira olishi kabi xislatlar tarjimonning yuksak darajada ekanligini ko'rsatib beradi.

Tarjimon ayniqsa GID tarjimon o'z ish faoliyati davomida xorijiy mehmonlarni o'ziga jalb qila olishi uning keng dunyo qarashi, madaniyati, noyob so'zlardan foydalana olishi, estetik mahorati mamlakatimizning urf-odatlarini va madaniyatini ko'rsatib turadi [5, 3-7].

Aynan ushbu xislatlarni o'zida aks ettira oladigan tarjimon darajasiga erishish masalasi va uning asosiy vazifasi sifatida talqin etish mavzuning dolzarbligi ko'rsatadi.

Ishning maqsadi va vazifalari. Ushbu bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi ikki soha ya'ni og'zaki va badiiy sohalarni bir- biridan farqlagan holda va ularning o'zaro farqlarini o'rganish hamda o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, ularning mahoratini o'rganishdan iborat.

Mazkur bitiruv malakaviy ishi tarjimonning nutq faoliyatida estetik mahorati, tarjimon tushunchasi, san'ati, ijodkorlik, psixologik mahorati va tarjimonning tarjima jarayonida tutgan o'rni muhokama qilinadi.

Ishning o'rganilganlik darajasi. Tarjimonning nutq faoliyatida estetik

mahotratini tadqiqotida oid ko'pgina ishlarni kuzatishimiz mumkin. Masalan Jo'rayev K. "Tarjima sa'nati". G'afurov I. "Tarjimashunoslik mutaxassisligiga kirish" kabi tadqiqot ishlarida, hamda dunyo olimlarining quyidagi tadqiqot ishlarida Komissarov V.N. "A manual of translation from English" Vladimirova N. "Milliylikni tarjimada aks ettirish muammosi. Tarjima sa'ati" va boshqa bir qator tilshunos va olimlar tomonidan, tarjima, tarjima va san'at, tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Lekin tarjimonning nutq faoliyatida qanday estetik mahoratlardan foydalanishi o'rganilmagan.

Ishning predmeti va obyekti. Nutq jarayoni, insonning nutqiy faoliyati uning rang barang ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy va tabiiy faoliyati bo'lganligi sababli nutqiy faoliyat inson faoliyatining qolgan o'nlab qirralari bilan bog'liqlikda chambarchas o'rganiladi.

Tarjima etika, estetika, stilistika, tilshunoslik, psixolingvistika, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bog'liq ekan ishning predmeti va obyekti nutqiy jarayon va bu jarayonga o'z xissasini qo'shgan tarjimonlar hisoblanadi.

Ishning nazariy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishining nazariy ahamiyati bugunga qadar bu sohada faoliyat ko'rsatayotgan tarjimonlarning erishgan yutuqlarini o'rganish, ularni umumlashtirish, uning istiqboli haqidagi nazariy qarashlarni ilmiy tahlil etishga qaratilgan.

Shuningdek, nutq jarayonida tarjima tarixini, xususiyatlarini o'rganish ushbu ishning asosiy nazariy ahamiyatini kasb etadi.

Ishning amaliy ahamiyati. Keyingi yillarda tilga e'tibor xorijiy hamkorlikni va madaniyatni rivojlantirish maqsadida tarjimonga bo'lgan talab yanada oshdi. Shuningdek, bu malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, tarjimonning nutq faoliyatini ravon bo'lishida maslahat va tavsiyalar, qo'shimcha yo'riqnomalar, ma'lumotlar sifatida aniqlik kiritib o'tish mumkin.

Tarjimon tarjima jarayonida uchragan qiyinchiliklarni, noqulayliklarni bartaraf etish haqida tavsiyalar berib boriladi hamda bu ko'nikma ushbu bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati hisoblanadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Tarjimon ma'lumotni tarjimada hech qanday xatoliksiz to'g'ri yetkazib berish uchun umummadaniy estetik bilimlaridan foydalanishi va nutq hodisasi va emotsional ta'sirni yaqindan o'rganishi, nutq faoliyati va hodisasi farq qilishini tan olgan holda, tarjimonlarning o'g'zaki va yozma tarjimon darajasiga muvaffaqiyatli erishishi.

Qo'llanilgan metodlar. Bizga ma'lumki, biror nutqni tarjima qilishda tarjima qilinayotgan nutq ona tili bilan solishtirib, qiyoslab tarjima qilinadi. Xuddi shunday, ikki til ya'ni ona tili va o'rganilayotgan xorijiy til bilan ishlaganda qiyoslash metodidan foydalanib undagi o'xshash va farqli tomonlari o'rganiladi. Ushbu bitiruv malakaviy ishida ham, asosan, qiyoslash, tahlil qilish, transformatsion metodlardan foydalanildi. Shuningdek, tarjimonning ishlash jarayonida kuzatuv metodi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Qo'llanilayotgan metodlar tarjimonning ish faoliyatini osonlashtiradi va xorijiy sayyohlar bilan olib boradigan muloqoti davomida ishning oson ko'chishiga ko'maklashadi.

Ishning tarkibi. Mazkur bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, uchta bob, har bir bobga qisqa xulosalar, umumiy xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar kabi qismlardan tashkil topgan.

Kirish qismi yettita tarkibiy qism:

- ishning dolzarbligi;
- ishning maqsad va vazifalari;
- ishning o'rganilganlik darajasi
- ishning predmeti va obekti
- ishning nazariy ahamiyati
- ishning amaliy ahamiyati
- ishning ilmiy yangiligi
- bitiruv malakaviy ishida qo'llanilgan metodlar
- ishning tarkibi kabi qismlarni o'z ichiga oladi.

Birinchi bobda tarjimon tushunchasi, san'ati va mahorati , uning tarjima jarayonida noyob so'zlarni qo'llay olish qobiliyatiga ega ekanligi borasida so'z yuritiladi.

Ikkinchi bobda tarjima faoliyatida tarjimon uslubi va nutq madaniyati, jumlar va ularning talqin qilinishi, ijodkorlik hamda tarjimonning psixologik mahorati haqida ma'lumot beriladi va misollar orqali tushuntiriladi.

Uchinchi bobda O'zbekistonda tarjimashunoslik va uning ahamiyati, tarixi, madaniy hamkorlik va istiqboli haqida talqin qilinadi.

I BOB

TARJIMON VA UNING TARJIMA JARAYONIDA TUTGAN O‘RNI

1.1. Tarjimon tushunchasi

Tarjima bu, boshqa tildagi badiiy go‘zallikni o‘z xalqi uchun ijodiy o‘zlashtirish, yangi tilning quvvati va qudratini namoyon etib asarni shu tilning san’at hodisasida aylantirish demakdir.

Tilni professional darajada o‘zlashtirib, tarjimon bo‘lib ishlash deyarli keng yoritilmaydigan, o‘ziga xos va yetarlicha nozik masaladir. Tarjimonlik kasbi-ning dunyoda juda keng tarqalgan eng ijodiy qablardan biridir. Ommaviy axborot vositalarida tarjimonlar haqida juda kam yoziladi (gapiriladi) shuning uchun ham, odatda, ushbu kasb to‘g‘risida hammada har xil, aksariyat hollarda yanglish tasavvurlar shakllanadi [18, 94].

Tarjimonlik kasbi azaldan eng nufuzli va zaruriy kasblardan biri sifatida e’tirof etib kelingan. Birinchi tarjimonlar qadimgi misrda paydo bo‘lganlar va uzoq zamonlar obro‘li odamlar qatoriga kiritilganlar. Sharq mamlakatlari bilan chambarchas aloqa bog‘lagan qadimgi Gretsiyada esa chet tilini bilgan kishilar alohida mavqega ega bo‘lganlar. Qadimiy rusda (Rossiyada) tilmoch rohiblar juda o‘qimishli kishilar sifatida tan olingan, Napoleon Bonapart esa “ikkita tilni bilgan askar, ikki nafar jangchi o‘rnini bosadi”-deb ta’kidlab o‘tgan.

Tarjimonlik kasbining eng afzal taraflaridan biri shundaki, u tarjima jarayonida nafaqat shunchaki tarjima qilib boradi, balki kishilar o‘rtasida hamfikrlik va sheriklik muhitini qaror toptiradi [18, 86]. Tarjimon nafaqat har xil tillarda gapiradigan odamlar o‘rtasida vositachi bo‘lib xizmat qiladi, qolaversa, tijorat yoki siyosat ishlarini yuritish usullariga oid tasavvurlari bir birinikidan keskin farq qiluvchi turli madaniyat vakillari o‘rtasida umumiy nuqtai nazar shakllanishiga erishish uchun yordam ham beradi.

Faoliyatlarning turiga ko‘ra tarjimonlar og‘zaki va yozma tarjimonlarga bo‘linadi. Tarjima turlari bir-biridan kuchli farq qiluvchi sohalar bo‘lib, sharqiy yevropa tillarida ikkita har xil kasb sifatida, misol uchun inglizlarda og‘zaki tarjimon “interpretor”, yozma tarjimon esa “traslator” deb ko‘rsatiladi. Bular

ya'na o'z navbatida og'zaki tarjimonlar sinxron va tadrijiy tarjimonlarga ajratiladi. Yozma tarjimonlar esa, texnik va badiiy adabiyot tarjimonlariga bo'linadi.

Avvalambor, tarjimon kasbi va mehnati jahon madaniyati taraqqiyotida ularning o'zaro hamkorlik qilishlarida alohida o'rin tutadi [18,124]. Buyuk mutafakkir olim, so'z san'atkori Alisher Navoiy "Til bilgan-El bilar" deb bejizga aytganlar. Chunki, juda qadim zamonlardan boshlab, madaniyat o'chog'i hisoblangan "Buyuk ipak yo'li" bo'lgan paytlardan boshlab, insoniyatning savdo, iqtisodiy aloqalarida til bilish, til o'rganish, so'zlarning ma'nolari va ma'nolarining doiralarini aniqlashda, tilni aloqa, muomila, muloqot quroliga aylantirishda tilmochlar (og'zaki tarjimonlar), ijodkor tarjimonlarga juda katta ehtiyoj tug'ilgan. Juda qadimdan ismlarning har xil tillarga xos tarzda qo'llanilishi ham juda ko'p atoqli otlarga aylangan. (Sora-ayollar ismi), Sar-bosh (xalqning boshi, podshohi), Sar, "Chor" degan so'zlar ham podshoh ma'nosida qo'llangan. Yuzlab, minglab bunday so'zlar va tushunchalar, atoqli otlar, atamalarning xalq tilidan kirib kelishi faqat va faqat tarjimalar va tarjimonlarning sayi-harakatlari, ijodiy kashfiyotlari natijasidagina mumkin bo'lgan. Bular haqida ko'pdan ko'p tarixiy kitoblar xabar berib turadi.

O'zbek tilida uzoq qadimdan "Tilmoch" degan so'z mavjud. U boshqa turkiy xalqlarning lug'at boyliklarida ham aks etgan. Tilmoch- "til biladigan", "til ag'daradigan kishi" degan ma'nolarni anglatadi. Tilmoch tarjimon so'ziga qaraganda qadimiyroqdir. "Tarjima" va "tarjimon" so'zlari iste'molga kirgandan so'ng tilmoch tarjimondan farqlanadigan bo'ldi. "Tarjima" va "tarjimon" ko'proq yozma madaniyatga daxldor bo'lib, lekin ularning ma'nosida sezilarli farq bor. Tarjima – "qayta yaratish", "qaytarish" ma'nosini bildiradi. O'zbek adibi, yozuvchisi Cho'lpon tilimizga "tarjimachi" degan atamani olib kirgan.

Ilk davlatlarning dunyoga kelishidan boshlab, hozirgi kunga qadar tarjimonlar davlatlararo diplomatik munosabatlar o'rnatilishi, uning mustahkamlanishiga, rivojlanishiga, madaniyat uchog'iga aylanishiga xizmat

qilganlar. Bundan tashqari xalqlarning bir birlarini bilishlari, tushunishlari madaniyat almashinishida o'z qimmatli xissalarini qo'shganlar

Hatto, buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning ustози Abdurahmon Jomiyning avliyolar haqida yozgan "Nafoxot ul-uni men hazorotul-quli" degan asarini yigirma yil o'tgandan so'ng tarjima qiladi. Shunisi ajoyibki, bu asarni yozish g'oyasini Jomiyga Alisher Navoiyning o'zi bergan va uni bunga rag'batlantirgan edi ("Jam-u tartibining boisi buldum").

Ko'rinib turibdiki, Navoiydek daho adib va mutafakkirning o'z g'oyasini o'z ustoziga bergan, asarni tarjima qila olarmikinman, deb o'ylanib turgani diqqatga sazovor. Shunday kishilar bor: istagan narsani, istagancha tarjima qilib tashlashga o'zlarini, qurbli va haqli deb biladilar. Tarjimaga hurmatsizlik bilan, juda oson ish deb mensimay qaraydilar va natijada qiladigan tarjimalar, ularning ishlarida to'la aks etib turadi. Navoiy tarjimaga juda katta mas'uliyat bilan qaraydi va uning bu madaniyati nihoyatda noyobdir. U shuning uchun ham, Jomiyning kitobi juda nozik fikrlarga to'la, ularning o'z ona turkiy tillarida tushunarli va ta'sirchan aytib berish oson emas deb o'ylaydi. U buning uchun ravshan so'zlar va ochiq uslub lozim deb chamalaydi, bu bilan Navoiy tarjimon nima va uning vazifasi nimadan iborat ekanligini juda yaxshi farqlaydi.

Tarjimon uchun ravshan so'zlar va ochiq uslub ya'ni tinglovchi va uning tarjimasini o'qiyotgan inson uchun tushunarli uslub nihoyatda zarurdir. Aynan bunday xislatlar tarjimaga bo'lgan talabni yanada ifodalab beradi. Tarjima o'z badiiy estetik prinsiplariga asoslanadi. Aks holda, fikrlar to'g'ri kelmay noto'g'ri tushunilish extimoli, ma'lumotlar qisqarganligi paydo bo'ladi.

Shuning uchun ham, Navoiy yaratgan tarjima asarlari bamisoli quyosh parchasidan alanglanib turadi va ularni o'qiyotganda xuddi tirik urib turgan qalb bilan gaplashayotganday o'zni xis qilish mumkin.

Zamonlar o'tishi bilan tarjimaga qarashlar, fikrlar ham o'zgarib bordi. Tarjima tillararo aloqa vositasidan tashqari, keyinchalik san'at turiga aylandi. Qadim zamonda tilmochlar so'zlarning mazmunini bayon qilib berishga harakat qilgan. Yuqori martabali odamlar, savdogarlar, sayohatchilar, elchilar, podshohlar

til bilishga harakat qilganlar. Usha zamonlarda savdo-sotiq va sayohatlar boshqa mamlakatlarni bilish va o'rganishni til bilimisiz hatto tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Xalqaro munosabatlarda til sof amaliy vazifani o'tagan. Shuningdek, uzoq zamonlar tarjimaning nazariyasi, yo'llari, usullari ustida hech kim bosh qotirmagan. Mazmuni erkin va shu bilan birga aniq bayon qilish tarjima uchun eng muhim xususiyat deb bilingan va shunga rioya etilgan. Insoniyatning ulug' dostonlari, buyuk tarix kitoblari, ilohiy bitiklar va boshqa tillarga ham tarjima qilina boshlagach, tarjimaning ahamiyati va unga bo'lgan talab yanada ortib borgan. Tarjima- bu so'z san'ati degan tushuncha mustahkamlandi. Diniy ta'limotlarning yer yuzi xalqlari orasida tarqalishi va ustuvor bo'lishida ham, so'z san'atiga aylangan tarjima katta rol o'ynagan, deyish mumkin [19,163].

O'zbekistonda ham Yunon, Hind, Xitoy, Arab manbalarini tarjima qilishga urinishlar qadim zamonlardan boshlangan. "Avesto" va buddiy ta'limotga daxldor bitiklarni tarjima qilishga urinishlar bo'lgan. Keyinchalik islom madaniyatining kirib kelishi, VII, XII asrlarda Xorazm, Buxoro, Termiz kabi ko'hna madaniyat beshiklaridan Farobiy, Ibn Sino, Xorazmiy, Beruniy singari ulkan iqtidorli allomalarning tug'ilishi, sufiylik ta'limotining yoyilishi oqibatida arab, fors, qadimgi turkiy tillarning mavqei ortdi. Ilmiy adabiy manbalarni tarjima qilish kurtaklari nish urdi. Masalan, Farobiy, Xorazmiy, Ibn Sino, Beruniy singari daholarning ilmiy faoliyatini tarjimalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Keng miqyosda aynan til bilimlarisiz ularning tibbiyot, astronomiya, falsafa, fizika, jug'rofiya, geodeziya, axloq, diniy ta'limotlar, algebraga doir mangu tirik kitoblarni ko'z o'ngimizga keltirishimiz qiyin albatta.

Kundalik turmush tarzi nuqtai nazaridan qaraganda, aksariyat odamlar "ikkita tilni yaxshi bilgan har qanday kishi, bir tilni ikkinchisiga o'gira oladi",- deb o'ylaydilar. Afsuski, bunday qarash oddiy hayotiy vaziyatdagi matn tarjimasiga masalan, ovqat uchun kerakli taomlarga og'zaki buyurtma berish yoki uchrashuv vaqtini belgilab telegramma yuborish zarur bo'lgan holatlarga ta'luqlidir. Bunday vaqtda ko'pchilik tegishli jummalarni tarjimonsiz ham tarjima qilish mumkin. Lekin, asliyatning nafaqat umumiy mazmunini, balki barcha

tavsiyotlarini to'la to'kis tushunib yetish, shuningdek, o'zbek tilini mukammal bilishni talab qiladigan katta hajmli badiiy, yuridik, texnik yoki tibbiyot sohasiga oid matnlar bilan bog'liq ishlar aynan professional tarjimon vakolatiga kiradigan mas'ul zimmadir.

Tarjimaning asosiy muammosi tarjimon oldiga matnni to'liq tushunish va puxta idrok etish talabi qo'yilishidan iboratdir [19,147]. Bunday talab bo'lmaganda tarjima asosan mexanik ravishda muayyan tilga mansub so'zlarni boshqa tilda qo'llaniladigan so'zlar bilan almashtirishdan iborat bo'lib qolar va bu ish kompyuter tomonidan allaqachon bajarilgan bo'lar edi. Va bugunga kelib tarjimon sohasiga ehtiyoj sezilmagan bo'lar edi.

Tarjima-ichki his, shaxsiy hayotiy tajriba, matn zamiridagi ma'noni anglash va shu kabi ko'plab mezo'larni o'z ichiga qamrab oluvchi ijodiy ishdur.

Avvalombor, shuni ta'kidlab o'tish joizki, yozishni bilgan har qanday odam yozuvchi bo'la olishi adolatdan qanchalik yiroq bo'lsa, ikki tilni bilgan har qanday inson tarjimon bo'lishi haqiqatdan shunchalik uzoqdir. Muayyan tildan olingan axborotni boshqa til vositasida odamlarga yetkazish uchun, birinchidan, kishi ushbu axborotni aniq tushunishi, ikkinchidan esa o'z tushunchasini bayon eta bilishi kerak. Shubhasiz, na ko'nikma na mahorat til bilish bilan barobar avtomatik ravishda shakllanmaydi [20,150]. Og'zaki tarjimon va yozma tarjimonning yoki texnik adabiyot tarjimonlari, badiiy adabiyot tarjimonlarining ishini bajara olishlari juda qiyin faoliyatdir. Muayyan bir mavzuga mansub tarjima boshqa mavzuga oid tarjimaga nisbatan oson kechadi, bir mavzuni tarjima qilgan har qanday tarjimon boshqa mavzuni ham tarjima qila oladi degan fikr ham noto'g'ridir.

Tarjimaning har bir turi va ko'rinishi aslyat matnni idrok etish bosqichiga xos jihatlari va xususiyatlarga egadir. Bunda tarjimon qayta qayta o'qib chiqish davomida idrok etadi, tushunish va xis etishga, uning badiiy qimmatini anglab yetishga intiladi [35,141]. Uslubiy jihatdan qanday shakllanganini aniqlaydi, tarjima matni, tasirchanlik darajasi qanday bo'lishi, muayyan so'z, jumla, ibora, abzat kabilar qanday tarjima qilinishi kerakligi belgilaydi.

Har bir professional tarjimonda o'ziga xos uslub va ko'nikmalar shakllangan bo'ladi. Tarjimon o'ziga qo'yilgan talab va bosqichlarni chetlab o'tolmaydi, negaki ularda inson tafakkurining bir turi sifatida e'tirof etiladigan tarjima jarayoni obyektiv aks ettirilgan.

1.2. Tarjima san'ati va tarjimonlik mahorati

Tarjimada talqin – interpretatsiya birinchi darajali va muhim ahamiyatga ega. Tarjima nazariyasining shu kungacha qayd etilgan barcha meyorlari, mezonlari, qoidalari ular oxir oqibatda qanchalik nisbiy bo'lmasin, barchasi interpretatsiyaga –borib taqaladi. Badiiy adabiyotlarni tarjima qilish jarayonida badiiy talqinga, ilmiy adabiyotlar tarjimalarida ilmiy talqinga, og'zaki tarjimalarda esa zakovatli, hozirjavob talqinga juda ko'p narsalar bog'liq bo'ladi [35, 153].

Talqin –interpretatsiyada tarjimonning indevidualligi, uning iste'dodining qirralari, bilimlarning naqadar teranligi, insoniyligi, aql – zukkosi namoyon bo'ladi. Tarjimada individuallik o'zi bu nima?

Tarjima qiluvchi – shoir, adib tarjimonning ijodiy individual xislatlari, xususiyatlari u tarjima qilayotgan asar matniga ham bevosita o'tadi. U tarjima qilayotgan matn shu xususiyatlarning to'la va har tomonlama ta'sirida bo'ladi.

Tarjima matnining shiradorligi, jozibasi, xuddi original kabi o'qilishi manashu ijodiy individuallikdan boshlanadi va nomoyon bo'ladi. Individuallikning asl mohiyati esa talqinning kuchi, darajasidagina ko'zga tashlanadi. Mashhur o'zbek adibi E. Vohidov “Men rus shoiri S.Yeseninni xuddi o'z akamdek yoqtirib qoldim. Uning yozgan sherlarini, xuddi o'zim yozgan she'rlar kabi sevdim. “Fors taronalari” turkum she'rlarni xuddi o'zim yozgandek o'zbek tiliga o'girdim.”, deb aytardi. “Fors taronalari” deb, haqiqatdan ham xuddi boshdanoq o'zbek tilida yozilgan kabi o'qiladi. Uni o'qiyotgan odam hatto tarjima ekanligini bilmaydi. Bunda Yesenin indevidualligi bilan o'zbek shoiri o'ziga xosligi uyg'unlashib ketganligini ko'ramiz. Umuman olganda, interpretatsiya-tom ma'nodagi individual ijodiy hodisadir. Bir asar yoki kitobning yuzlab interpretatsiyalari talqinlari bo'lishi mumkin. Bu juda tabiiy holdir. Hatto

bir shaxs ham – bir interpretatsiya bo‘lishi mumkin. Yuzlab shaxslar esa – yuzlab interpretatsiyalardir. Badiiylikning cheksiz, tunganmas ko‘rinishlari – versiyalari mana shu narsa-intepritatsiya qudrati, salohiyati, rang barangligidan quriladi [25, 68].

Tarjima amaliyoti jarayonida XX asrning 30-yillaridan boshlab tarjimaning bir qancha turlari farqlanadigan bo‘ldi. Turlarning paydo bo‘lishi tarjima ishiga turlicha yondashish va munosabatlar yuzaga kelgani bilan izohlanadi. Bu o‘rinda tarjimaning bir qancha turlarga bo‘lib o‘rganib va tarjimon mahorati va san’atini undan qanchalik foydalana olganlik darajasini belgilash mumkin.

Adekvat tarjima. Bunda asl nusxaning barcha g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari tarjima tilida to‘la saqlanadi. Originalga to‘la xamohangligi yaratiladi. Hamohanglik. So‘zlarning ma’nolarini anglatishda bexato ekvevalentlikka erishiladi. Bundan tarjimondan tilning stilistik, lingvistik talablariga optimal darajada rioya etilishi talab etiladi [29, 143].

Erkin tarjima. Tarjimonlik soxasida va tarjima tarixida juda ko‘p qo‘llangan tarjima turi bu-erkin tarjimadir. Asliyat tarjima jarayonida ko‘pgina o‘zgarishlar, qisqartirishlar, o‘zgacha talqinlarga uchraydi. Asliyat esa, aynan tarjimon irodasi bilan soddalashtiriladi. Tarjimon esa o‘z uslubidan kelib chiqib bayon qiladi. Buni tarjima nazariyasida ADAPTATSIYA deb ataladi. Badiiy tuzilishi soddalashtirilgach, bayon qilib berish yo‘lidan borilgan erkin tarjimada, tarjima o‘quvchisining uni qabul qilishi va oson tushunishi maqsad qilib olinadi [27, 159].

Shu bois, erkin tarjima turi tarjimondan katta mahorat va ijodkorlik talab etadi.

Erkin ijodiy-tarjima. Asliyat tarjimasiga tarjimonning ta’siri ancha kuchli tarzda namoyon bo‘ladi. Tarjima asliyatga nisbatan badiiy jihatdan va tuzilishiga ko‘ra ancha boyib, mukammallashadi. Erkin ijodiy tarjimada tarjimonning individual ijodiy o‘ziga xosligi kuchli darajada ko‘zga tashlanib turadi. Erkin-ijodiy tarjima ayniqsa she’riy asarlar tarjimasida ko‘p yuzaga chiqadi. Ko‘p

holatda tarjima asliyat bilan katta musobaqaga kirishganday bo‘ladi. Asliyatga teng yoki undan ortiqroq asar tug‘iladi.

Bunday erkin ijodiy tarjima namunalarini ijodiy tarjimalar deb ham atash mumkin.

So‘zma so‘z tarjima. Buni inglizcha atama bilan “word by word translation” deb ham yuritish mumkin. Boshqacha qilib aytganda taglama tarjima, hijjalab tarjima qilish degan atamalari ham bor. Bunda asliyatning badiiy xususiyatlari saqlanadi [28,192]. Bunday tarjima turida so‘zlarning yaqinlik ma’nolarini ifodalash bilan cheklaniladi. XX asrda taglama, qoralama tarjimalardan badiiy tarjima uchun juda foydalanish odat tusiga kirgan edi. Tarjima zarurati, milliy qardosh tillarini yaxshi bilmaslik shunday tarjima turidan foydalanish, mafkuraviy va boshqa ehtiyojlarni qondirish nazarda tutardi. Tarjima jarayonida bunday usuldan foydalanish ma’qul emas deb hisoblanadi. Bu tarjima tarixida bir tajriba bo‘lib qoldi. Uni mukammal tarjima uchun shunchaki bir homaki matn, deb atash to‘g‘riroq bo‘ladi.

Ma’nolar tarjimasi. Buni Sharq tarjimachiligida tavsir ham deb yuritishadi. Keyingi yillarda o‘zbek tiliga ilohiy kitob “Qur’oni karim” bir necha marotaba iqtidorli mutaxassislar tomonidan tarjima qilingan. U tarjimalarga “Ma’nolar tarjimasi” deb yozib qo‘ygan. Bu ko‘proq muqaddas kitoblar tarjimasida qo‘llaniladigan usul. Ilohiy muqaddas kitoblarni hech qachon asliyatga teng tarjima qilib bo‘lmaydi, asliyatning siri, fusunkorligini hech qachon boshqa tilda to‘la o‘zidek chiqarish mumkin bo‘lmagan ish, degan diniy doiralarda rasm bo‘lgan fikr tufayli shunday yo‘l tanlanadi. Bu bayon qilish-tavsir, ya’ni iksplekatsiyaga yaqin usul. Har bir muallif individual bo‘lganidek, har bir tarjimon ham individual ijodiy insonniy xususiyatlarga va qirralarga egadir.

Og‘zaki-sinxron tarjima. Nutq yoki jonli so‘zlashuv jarayonini biror tilga o‘girish, boshqa bir tilda takrorlashga og‘zaki tarjima deyiladi. Og‘zaki tarjima sinxron ya’ni nutqning tugallangan har bir gap bo‘lagini, izma iz tarjima

qilish va nutqning u soʻzlab boʻlingach, tekst boʻyicha tarjima qilish yoʻllari mavjud.

Sinxron tarjima. Tarjimondan katta bilim, madaniyat, zakovat va fikrni tez ilgʻab, uni ravshan ifodalaydigan soʻz topishni talab etadi. Bunda notiq jumalarning maʼnosini bir zumda, darhol boshqa tilda qaytarish talab etiladi. Sinxron tarjimaga talab juda katta va uning masʼuliyati ham shu darajadadir.

Tarjimonlik kasbini tanlagan kishilar oʻzlarini sinxron tarjimaga chuqur va keng tayyorlashlari kerak boʻladi. Oʻzbekistonning xalqaro aloqalari, munosabatlari ortgan, kuchaygan sari sinxron tarjimaga talab zoʻrayadi. Bunday yuksak ixtisosli tarjimonlarni yetishtirish katta ahamiyatga ega.

Sinxron tarjima uchun ikki yoki undan ortiq tillarni mukammal bilish, leksik, talaffuz normalariga mukammal rioya etish, tez fahmlilik, siyosiy, ijtimoiy, falsafiy, iqtisodiy tushunchalar hamda tilning barqaror birliklaridan, maqol va matallardan yaxshi xabardorlik talab etiladi.

Mashina va texnik tarjima. Kopmyuter yoki boshqa texnikaviy vositalar yordamida bajariladigan tarjimalarni mashina yoki texnik tarjima deb atalib kelinmoqda. Mashina tarjimalar cheklangan lugʻat va cheklangan matnlar doirasida amalga oshiriladi.

Asliyatdan tarjima. Tarjimaning eng maʼqul sanalgan yoʻli bu – asl tilning oʻzidan bevosita qilinadigan sifatli tarjimadir.

Vositali tildan tarjima. Tarjima tarixi va amaliyoti vositali, yaʼni ikkinchi, uchinchi til orqali tarjima qilishning juda boy tajribalariga ega. Vositali til orqali bajariladigan tarjimalar bu sanʼat nazariyasi va amaliyotining barcha meʼyor va mezonlariga, qoidalariga rioya etadi. Bunda ham aniqlik, mufoviqlik, moslik, yuksak badiiy, ilmiy xususiyatlarni saqlash va har jihatdan teng kuchga matn yaratish talab qilinadi. Albatta vositali til orqali tilning ayrim nozikliklari, ifodaviylik, taʼsirchanlik boy berilishi mumkin.

Mashhur ingliz yozuvchisi Jek London oʻzining Martin Edin asarida tasvirning haqqoniy va hayotiy talqiniga erishish uchun ataylab personajlari nutqiy tasvirini yaratadi. Uning har bir personaji oʻz ishi va madaniy saviyasi,

dunyoqarashi doirasida soʻzlaydi. Asar boshida yetakchi qahramon Martin nutqi grammatik va fonetik qoidalarga boʻy soʻnmagan holda son sanoqsiz soʻz va iboralar bilan toʻlib toshgan boʻlsa, asar davomida ongʻli, ilmi va madaniy saviyasining oʻsib borishi bilan uning nutqi adabiy shaklga kirib, mavjud nuqsonlardan tozalanib boradi. Tarjimada personajlarni nutqiy taʼsirini tiklash, toʻlaqonli tarjima yaratish shartlaridan biri ekanligi nazarda tutiladi. Bu quyidagicha berilgan:

Well, I've ben doin' a lot of thinkin' ever since. I've ben to the library a lot, but most most of the books, I've trackled have ben over my head. Meble I've better begin at the beginnir'. I ain't never had no advantages [10, 139].

Xullas, oʻshandan beri juda koʻp oʻyladim. Kutubxonaga qatnay boshladim, u yerdan har xil kitoblar oldim, lekin ularning hammasiga ham aqlim yetayotgani yoʻq. Balki, hamma narsani boshidan boshlashim kerakdur? Hechqachon men, ochigʻi durustgina oʻqigan ham emasman.

Tarjima sanʼati tillarning ravnaqi uchun zaruriy vosita sifatida, ularning rivojlanish surʼatini jadallashtiradi, lugʻat boyligini oshiradi va takomillashtiradi.

Tarjima inson maʼnaviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini roʻyobga chiqaradi, uni serjilo qiladi.

Tarjima tufayli kitobxon tafakkuri charxlanib, yangi gʻoyalar, tushunchalar bilan boyiydi.

Tarjima jamiyatda yangicha munosabatlar, qarashlar qaror topishga xizmat qiladi.

1.3. Tarjimada noyob soʻzlarni qoʻllash

Oʻzbek tilining lugʻat boyligi boshqa tillar kabi qoʻshni, qardosh, chet ellar bilan uzoq tarixiy muomala, munosabat madaniy, savdo-sotiq aloqalari davomida atamalar, rang barang tushunchalarni ifoda qiluvchi soʻzlar qoʻshilib, boyib, oʻzgarib, ifoda imkoniyatlari ham kengayib borgan. Juda qadim zamonlardan beri rus, lotin, ingliz, german, fransuz, italiyan, ispan, qardosh turkiy xalqlar tillari bir birlariga oʻz taʼsirlarini oʻtkazganlar, tillarning lugʻat boyliklarining kengayishi va teranlashuviga xizmat qilgan. Milliy tilimiz tarkibiga turli xorijiy yerlardan

kirgan soʻzlar ijtimoiy-madaniy, taraqqiyot jarayonida shunchalar oʻzlashib, milliy til sathiga kirib ketganki, xozir shunday u yoki bu soʻzni ishlatganda, uni boshqa tildan kirib kelganligini ajratib, farqlab boʻlmaydi. Faqat izohli lugʻatlardangina soʻz qaysi tildan kirganligi qayd etib oʻtiladi xolos. Til tarkibiga boshqa tillardan kirgan soʻzlarni aniqlash, ularning kirib kelishi, oʻzlashish tarixini oʻrganish, tillar rivojini qiyosiy tahlil qilish kuzatib boriladi.

Jonli soʻzlashuvlarda soʻzlar ularning qanday kelib chiqqanligidan qatʼiy nazar erkin qoʻllaniladi. Jonli soʻzlashuvning oʻz asosiy elementlari, unsurlari mavjud. Jonli soʻzlashuvda axborot berish, fikrni tushuntirish, hissiyotni ifodalash muhim ahamiyat kasb etadi. Muloqot ishtirokchilari fikrlashish ravshanligiga bayonning taʼsirchanligiga va mazmundorligiga diqqat-eʼtibor beriladi. Tarjimonning vazifasi oʻzi bayon qilayotgan fikrni yanada ilmiyroq, salmoqliroq, tantanaliroq tus berishini xohlasa noyob soʻzlarni qoʻllash imkoniyatiga ega boʻladi. Nutqqa jarangdorlik, koʻtarinkilik, shoironalik bagʻishlash uchun tarjimon oʻz nutqida odatiy boʻlmagan, noyob soʻzlarni ishlatadi. Masalan, “birlik” deyish oʻrniga “konsolidatsiya”, “koʻtarinkilik” oʻrniga “eforiya” soʻzini ishlatish nutqni ancha boyitadi. “Xalqchilik” deyish oʻrniga “demokratiya” soʻzi, “yangilik” degandan koʻra muayyan bir sharoitda “jadid” soʻzi yoki “modern” deyish maʼqulroqdir. Noyob, xorijdan kirgan soʻzlarni qoʻllash, fikrning holis qabul qilinishi, birday anglanishi uchun ham xizmat qiladi. “badiiy, ilmiy fan adabiyotlarida, xorijdan kirgan yoki kirib kelayotgan rang barang soʻzlarni qoʻllashning oʻz vazifalari, yoʻl yoʻriqlari, usullari mavjud”.

Badiiy, ilmiy adabiyotlardan noyob personajlardan, muallif nutqini xarakterlash, ularga emotsional rangdorlik, oʻzgacha bir maʼno, ruhiy iqlim bagʻishlash, masalani, xalqaro miqyosda qabul qilingan termin-islohatlar vositasida, ilmiy tarzda qoʻyish, rivojlantirish, yechishni koʻzda tutadi. Ilmiy adabiyotlarda xorijiy maxsus terminlarsiz fikrlash, bayon qilish, mudaosiz bir holatdir.

Tilning o'zgarishi faqat xorijiy so'zlarning kirishi bilan belgilanmaydi. Tilda so'zlarning eskirishi, iste'moldan chiqishi, qo'llanish doirasining torayishi natijasida, so'zlarning chiqib ketishi yoki arxaizimga aylanish jarayoni ham so'z kirib kelish jarayoni bilan parallel tarzda davom etadi. Keyingi tarixiy davrlarda, tilimizdan minglab so'zlar turli sabablarga ko'ra jonli va adabiy jarayonda, til tegirmonidan tashqarida qolib ketdi. Amir Temur yoki Navoiy, Boburlar zamonlarida amalda bo'lgan necha yuzlab harbiy terminlar qo'llanmay va ular tilning arxiviga aylandi. Rang barang shevalarda mavjud so'zlar shevalar doirasidagina qoldi va umum milliy iste'molga keng kirib kelmadi. Holbuki, adabiy-milliy tilning boyishi, rivojlanishi, xorijdan kiradigan so'zlar hisobigagina emas, shevalardan kirib keladigan so'zlar hisobiga ham boyiydi [24,162]. O'z ifodasini topadi.

Tilning o'zgarishi uzoq, to'xtatib bo'lmas jarayon. Bu jarayon dialektik qarama-qarshiliklarga to'la. Mana shu jarayondagina til dinamiklik kasb etadi.

Xorijiy so'zlarni o'zlashtirish, ijtimoiy amaliyotda kuchli sinovdan o'tadi. Sinov jarayonlarida ajnabiy so'zlarning funksiyasi, ma'no qirralari ham ma'lum darajada o'zgarib boradi.

Faqat noyob so'zlarni qo'llashda ularning tarixiy va etimologiyasi haqida tasavvurga ega bo'lish va ayniqsa bunday so'zlarni-terminlar, atamalarni qo'llashda, estetik me'yor xissini unutmaslik muhim ahamiyat kasb etadi. Har holda noyob so'zlar, terminlarni qo'llashda mey'or maqsadga muvofiqlik, badiiy matnga moslik-go'zallik yaratish prinsipidir. Tarjima dialektikasi shuni talab va taqozo etadi.

Tarjima jarayonida xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar deyiladi va bu juda keng qo'llaniladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks etiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Har qanday badiiy g'oyaviy asar, o'zida baynalminallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalminallik asarning mazmuni va g'oyasida, milliylik esa uning shaklida namoyon bo'ladi.

Tarjima jarayonida yuzaga keladigan eng muhim qiyinchiliklardan biri original asarning milliy ruhini bo‘lak muhitga ko‘chirishdir. Tarjimon milliy-adabiy asarni o‘z tili, o‘z badiiy muhitiga ko‘chirar ekan, o‘sha original asar avtorining niyatini boshqa tilda ham amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yadi. Asardagi har bir so‘z va iborani shunchaki qog‘ozga qoraytirish uchun emas, chuqur ma’nosi bilan kitobxonda aniq bir xis tuyg‘u uyg‘otish uchun kiritilgan element deb qarang.

Estetik did bilan yuksak saviyada bajarilgan tarjima asarini o‘qish kitobxonga zavq, rohat baxsh etadi. Agar uni miriqib, berilib o‘qish jarayonida matnda notanish so‘z chiqib qolgudek bo‘lsa, tarjimonning vazifasi kitobni o‘qiyotgan kitobxon uchun osonlik tug‘dirishi, shuningdek, noyob so‘zlardan foydalanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjima qilingan narsa xoh eng mayda g‘oyaviy birlik, so‘z yoki jumla, xoh yirik ilmiy yoki badiiy asar-risola, monografiya, roman bo‘lsin, boshqa til borligida dastlabki vaqtlarda ham yangicha ma’no kasb etadi. Bora bora ana shu yangi milliy muhit zahirida sifat jihatdan asl g‘oyalar, fikrlar, janrlar, obrazlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi, bu esa, o‘z navbatida, tamoman butun bir yaxlit lug‘at, fan, adabiyot va san’at asarlarning maydonga kelishiga turtki bo‘ladi.

Tarjima jarayonida tasvir vositalarining qayta yaratilishi va bunda so‘z tanlash muammosi tarjimondan zo‘r mahorat talab etadi. “Tarjimon-asarni boshqa tildan, ya’ni ona tilidan qayta yaratish uchun muallif fikrini ancha pishitadi, o‘ziga singdirib oladi, keyin matn xarakteriga qarab muqobil so‘z tanlaydi, bu so‘zlar ma’nosi, jarangdorligi, shakli, uslubiy muqobilligi, asl nusxadagi fikrni iloji boricha, to‘laroq, ifodalash tashvishida yonadi” deb yozadi G‘aybullar Salomov [26, 110].

Tarjimada so‘z tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Agar tarjimon asliyat muallifining so‘zni qanchalik mahorat bilan tanlaganini his eta olsa, tarjimada ham so‘zni shunchalik ishonchli beradi.

Soʻz shakli, oʻzaro bogʻlangan soʻzlarning semantik tuzilishi va ularning nutqda ishlatilishi turli xil tillarda turlichadir. Har bir tilda oʻzining leksik tuzilishi mavjuddir. Lekin hamma maʼnolarida emas.

Tarjima jarayonida noyob soʻzlarni tarjima qilishda madaniyatlar oʻrtasidagi farqlarni ajratishdir. Muayyan madaniyatga mansub aholi biror narsaga oʻz dunyo qarashidan kelib chiqib qaraydi. Bir biriga ekvivalent boʻlib koʻrinadigan soʻzlar ekvivalent boʻlmasligi mumkin. Masalan, “choʻchqa” soʻzi oʻzbek tilida maʼlum darajada salbiy boʻyoqqa ega soʻz, ammo “pik” Amerikada bu soʻz netral maʼnoda qoʻllaniladi.

Tarjima qilish jarayonida baʼzan maʼlum maqsadda transliteratsiyadan foydalaniladi. Tarjima nazariyasida mavjud adabiyotlarning koʻrsatishicha transliteratsiyadan foydalanish avzalliklarga ega. Chunki transliteratsiya aslyatda ishlatilgan soʻzning talaffuz shaklini beradi. Transliteration soʻzning grafik jihatini hisobga oladi. Masalan, oʻzbek tiliga ingliz tilidagi “Hamlet” soʻzi ikki yoʻl bilan beriladi, “Gamlet” hamda “Hamlet”. Ikkinchi usul oʻzbek tili qonun qoidalariga yaqin boʻlish bilan birga talaffuzi ingliz tilidagi soʻzga juda yaqinligi bilan ajralib turadi. Mazkur soʻzni transliteratsiyada beradigan boʻlsak u “Hemlet” shakliga ega boʻladi.

Tarjima qilinayotgan tilda mos keladigan soʻzni, tarjima qilishning keyingi yoʻli maʼnoni yaqinlashtirib tarjima qilish yoʻlidir. Buni soʻz analogiyasi boʻyicha tarjima qilish deb ham yuritish mumkin. Agar tarjima qilinayotgan tilda aslyatda qoʻllanilgan soʻzning muqobili boʻlmasa, tarjimada ushbu soʻz maʼnosiga oʻxshash va yaqin soʻz tanlanadi. Masalan, oʻzbek tilidagi “halim”, “holvaytar” va “sumalak” soʻzlarini tarjima qilishda shunday yoʻl tutish tavsiya etiladi. Buning uchun shu soʻzlarga xorijiy tillarda maʼnodosh yoki oʻxshash soʻz tanlanadi. Bunda bitta soʻz oʻrinda soʻz birikmasi ishlatilishi mumkin. Oʻzbek tilidagi “halim” soʻziga, inglizcha mos va muqobil boʻladigan soʻz yoʻq. Biroq bugʻdoy bilan uzoq qaynatiladigan biror oʻxshash ovqat nomini tanlash mumkin. Tegishli soʻz topilmaganda uni “porridge wheat and stewed meat” shaklida berish mumkin. Bundan tashqari bu soʻzni “nutritious meat porridge” deb ham berish

mumkin. Qaysi soʻzni tanlash, matn maʼnosi va tarjimonning soʻz qoʻllay olish mahoratiga bogʻliq boʻladi.

Tarjimon hamma vaqt soʻz bilan ish koʻradi. Ikki yoki bir necha tilning muhiti va soʻzlari dunyosida ham ijodkor, ham tadqiqotchi va stilist sifatida ishtirok etadi [20,143]. Tarjimon asarning asl nusxasi, mazmuni va mundarijasiga koʻra qoʻllangan soʻzlar, jumlar, gaplarning maʼnolarini chiqaradi va asarning umumiy mundarijasi, uslubi, shakliga moslaydi hamda muvofiqlashtiradi.

Tarjimon jumla va gapni tashkil etuvchi alohida soʻzlarning maʼnolarini faqat va faqat kontekstga va uning oqimiga qarabgina chiqaradi, soʻzning maʼnosini jumlagi, jumlaning maʼnosini gapga, gapning maʼnosini alohida tugallangan parchada va parchaning maʼnosini asarning butun mundarijasi, shakli hamda uslubga moslaydi.

I BOB BOʻYICHA XULOSA

Birinchi bob yuzasidan xulosa tarzda quyidagi fikrlarga kelish mumkin: Insoniyat faoliyatining murakkab shakli boʻlmish tarjima- bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnni) uning shakl va mazmun birligini saqlagan holda oʻzga til vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir. Demak, asliyat mansub boʻlgan, til vositalari yordamida yaratilgan nutqiy ifoda (matn) tarjima tili qonuniyatlari asosida vujudga kelgan shunday ifoda bilan almashtiriladi.

Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimgi turlaridan biri boʻlib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tavsilotlari bilan ochiq oydin tasavvur etamiz.

Tarjima xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular oʻrtasidagi iqtisodiy siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.

Xulosa qilib aytganda nutqiy tasvirning tarjimada qayta yaratilishi har bir asar ishtirokchisining atrofda sodir boʻlayotgan voqea hodisalarga xulosa bildirishda oʻz bilimi va madaniy saviyasi hamda dunyo qarashidan kelib chiqqan holda fikr mulohaza bildirishi, oʻz layoqati va kayfiyati doirasida harakat qilishiga bogʻliqdir.

Tarjimonlik kasbi eng nufuzli va zaruriy kasblardan biri ekanligi, tarjima – ichki xis, shaxsiy hayotiy tajriba, matn zamirida ma’noni anglash va shu kabi ko‘plab mezonlarni o‘z ichiga qamrab oluvchi ijodiy ish ekanligi, ushbu bobning xulosasi hisoblanadi.

Ushbu bobda tarjimon uchun ona tilini yaxshi bilishi naqadar zarur ekanligini, tarjima jarayonida nafaqat chet tilini bilishga balki, ona tili mey’orlarini bilish haqida aniq ko‘rsatmalar berilgan.

Bundan tashqari, chet tilidan ona tiliga va ona tilidan chet tiliga tarjima qilish o‘rtasidagi farqlar va jarayonning qiyin kechish sabablari yoritilib o‘tilgan. Bu sohada tarjimaga qiziquvchi bo‘lajak tarjimonlarning nimaga ko‘proq e’tibor qaratishlari uchun asosiy maslahat deb qarash mumkin.

Tarjimon o‘z faoliyati davomida turli madaniyatlarni o‘ziga xos jihatlari, tafovutlarini aniq tasavvur etishi, olingan axborotni boshqa madaniyatga ega bo‘lgan kishilarga yetkaza olishi – tarjimon kasbining o‘ziga xos xususiyati ekanligi aniq ifoda etilgan.

Tarjimon uchun eng muhimi-ikki madaniyat tutashgan joydagi hayotdir. O‘z faoliyati davomida turli madaniyatlarning o‘ziga xos jihatlari bilan mutassil to‘qnash kelar ekan, tarjimon, ushbu madaniyatlardagi tafovutlarni aniq tasavvur etishi, bir madaniyat vakillaridan olingan axborotni boshqa madaniyat sohiblariga maksimal darajada aniq yetkazib bera olishi shart. Tarjimon kasbining o‘ziga xos xususiyati ham ayni shundan iboratdir. Chet tilidan ona tiliga tarjima qilish bilan, ona tilidan chet tiliga tarjima qilish o‘rtasida katta farq bor. Chet tiliga o‘g‘irish mobaynida, chet tilida o‘ylashga to‘g‘ri keladi. Chet tiliga tarjima qilish ona tiliga o‘g‘irishga nisbatan quyida sanab o‘tilgan:

a) chet tiliga tarjima qilayotgan tarjimon faqat o‘zi biladigan so‘zlarning aktiv zahirasiidan, ona tiliga tarjima qilayotganda esa bundan tashqari passiv til so‘z boyligidan foydalana oladi. Har qanday kishida aktiv so‘z boyligi passiv so‘z boyligiga nisbatan kamroq bo‘ladi. Shuning uchun u tez-tez lug‘at varaqlashga majbur bo‘ladi.

b) tarjima aynan bir grammatik qurilma yoki soʻzning chet tilining bir necha xil variantlari bilan yetkazish mumkin. Chet tilidan ona tiliga tarjima qilayotganda zaruriy qurilmalar yoki koʻproq toʻgʻri keladigan maʼnodosh soʻzlar tanlovi oʻzbek tarjimoni ongida avtomatik ravishda roʻy beradi. Bunday holatda tarjimon qurilmalar qoʻllanilishining chegaralarini aniq bilishi shart.

v) Aksariyat tarjimonlar, lotin imlosida yozishga qiynaladilar natijada chet tiliga qilinayotgan tarjima nisbatan sust kechadi. Koʻpincha, tarjimani toʻliq takomil darajada boʻlishi tarjimon koʻp yillar til sohiblari bilan mutassil ishlagan, tegishli mamlakatda, til muhitida yashab kelgan, usha tilda oʻylaydigan, tush koʻradigan boʻlishi lozim, shundagina, uning tarjimasi toʻla tukis adikvat deb yuritilishi mumkin.

II BOB

TARJIMA FAOLIYATIDA TARJIMONNING USLUBI VA NUTQ MADANIYATI

2.1. Tarjima va uning nutqiy faoliyatida jumlar va ularning talqin qilinishi

Nutq madaniyati insonning madaniy saviyasidan ilmiy va badiiy tafakkurini takomillashtirishda muhim o‘rin egallagani holda, fikrning adabiy til me‘yorlariga muvofiq tarzda to‘g‘ri, silliq, ta’sirli bayon ettirilishini, tilning tasviriy va obrazli vositalaridan unumli va o‘rinli foydalana bilishni, nutqning ixcham va sodda barcha uchun tushunarli va zavqbaxsh bo‘lishini taqozo etadi [20, 78].

Nutq madaniyati ma’lum fikr yoki tushunchani ifodalash uchun tilda mavjud ikki va undan ortiq vositalar orasidan maqsadga muvofiqini, estetik jozibadorini nutq jarayonida o‘quv tanlab, saralash ishlatish tamoyillarini ko‘zda tutgani holda, “qayta ishlanish”, “sarlash” oqibatida adabiy til me‘yorlari sifatida tan olinadigan holatlarni o‘z me‘yori deb biladi.

Nutq madaniyatini yuqori darajaga ko‘tarish jamiyat taraqqiyoti talabi o‘laroq, birliklarning fonetik qurilishini, grammatik me‘yorlarini, leksik-semantik, uslubiy xususiyatlarini, yasali, o‘zgarish, qo‘shilish-birikish qonuniyatlarini aks ettiruvchi adabiy me‘yorlarni aniqlash ishlarini yanada chuqurlashtirishni talab etadi. Yuksak nutq madaniyatiga tilning barcha imkoniyat va boyliklarini puxta va mukammal egallash asosida erishiladi [20, 95].

Nutq silliqdigi va ta’sirchanligiga intilish barcha xalqlar uchun ota meros bo‘lib, qadimgi bobolarimiz ham nutq jarayonida so‘zsiz ma’lum qonun-qoidalarga amal qilganlar [20,129]. Tillarning hozirgi taraqqiyoti darajasiga ko‘tarilishlari qadimgi kishilar nutqining asta-sekin, avloddan-avlodga o‘tish jarayonida o‘zgarib, shakllanib va rivojlanib kelganligi natijasidir.

Tillar taraqqiyoti tarixidan ma’lumki, aksariyat mutafakkirlar o‘z tillari madaniyati masalalariga befarq qaramasdan, uning takomillashuvi, fikr bayon qilish imkoniyatining kengayishi va rang-baranglashishi jarayoniga munosib

hissalarini qo'shganlar. Masalan, turkiy tillarning rivojlanishi va sayqal topishida Mahmud Qashg'ariy va Alisher Navoiylarning xizmatlari alohida o'rin egallaydi. Mahmud Qashg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" nomli qomusiy asarida turkiy tillarga oid juda ko'p leksik va frazeologik birliklarni jamg'argani, muayyan tizimga solgani va ularga ta'rif bergani holda, xalq ommasining va iboralarni nutqda saralab qo'llash malakalarining oshishiga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, Alisher Navoiy o'zining "Muhokamatul lug'atayn" nomli asarida o'zbek tilining bitmas - tunganmas fikr bayon qilish imkoniyatlariga ega ekanligini, uning har qanday fikrni ham nazmda to'la va chiroyli ifoda etishga qodirligini ilmiy va amaliy dalillar asosida isbot qilib beradiki, kitobga bayon etilgan fikrlar hamda shoirning g'oyat boy poetik ijodi tilimiz madaniyatining o'sishiga munosib hissa qo'shadi.

Ammo XX asrning boshlarigacha nutq madaniyati masalalari, tilshunoslikning talay sohalari qatori, chinakamiga ilmiy muammo sifatida keng ko'lamda maxsus tadqiqot ob'ekti bo'lgan emas edi. O'tgan asrning 20-30-yillaridagina bu soha ilmiy muammo sifatida keng ilmiy jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi. 50-yillarning oxirlaridan boshlab esa nutq madaniyati tilshunoslikning o'z tekshirish ob'ektiga ega bo'lgan maxsus sohasi sifatida shakllana boshladi [19, 68].

Hozirgi paytda nutq madaniyati masalalarini o'rganish sohasida mamlakatimizda katta ilmiy tekshirish ishlari boshlab yuborilgan bo'lsa, badiiy tarjimada nutq madaniyati masalasi tadqiqotchilarimiz tomonidan hali maxsus, tarjimashunoslikning dolzarb muammolaridan biri sifatida qalamga olingan emas.

Milliy tillar madaniyatini yaxshilash, rivojlantirish borasida ko'rsatilgan jonbozlik badiiy tarjima tili sohasida ham ko'rsatilishi lozim. Asliyat tili qay darajada sof, uning madaniy saviyasi qay darajada yuqori bo'lsa, tarjima tili ham shunchalik bejirim, asliyat tili madaniyati darajasida bo'lishi lozim. Muallif va uning personajlarining nutqiy saviyalarining aynan aks ettirilishiga kitobxonda asar tili haqida to'g'ri tasavvur hosil qiladi va uning g'oyaviy badiiy qiymati to'g'risida chiqaradigan hukmini to'ldiradi. Asliyat tiliga qo'yiladigan

talablarning barchasi tarjima tiliga ham aloqador bo'lib, badiiy tarjima ayniqsa til bobida ijodiy xususiyat kasb etadi. Asliyat mazmun va vazifa birligi tarjima tili qonun-qoidalari, leksik fraziologik vositalari yordamida qayta yaratiladi.

Ba'zan asarlar tarjimasi, mazkur ishni ijodiy jarayon deb emas, balki daromad manbai sifatida tushunadigan ayrim iste'dodsiz shaxslar qo'liga topshirib qo'yiladiki, bu tarjimonlar matnga savodsizlarcha munosabatda bo'lganlari holda, o'z matnlarini tarjima amaliyotida duch kelinadigan ko'plab nuqsonlar bilan to'ldirib yuboradilar. Natijada, asliyatda mujassamlashgan son sanoqsiz obrazli, hissiy ta'sirchan lisoniy vositalar tarjimada asliymonand jaranglamaydi, qisqasi, asliyat g'oyaviy badiiy mazmuni muallif ifodasi darajasidagi til va uslub vositalarida yordamida talqin etilmaydi [8, 104].

Hozirgi vaqtda til va nutq madaniyatini yaxshilash, rivojlantirish uchun kurash umumdavlat, umumxalq ahamiyati ega bo'lgan madaniy vazifasidir kabi so'zlar badiiy tarjima tiliga ham aloqadordir.

Tarjimon bu – uslub. Uslub esa-jumla. Jumla yaratish mahorati. Jumla tuzishni bilmagan tarjimon asliyatni yaratib berolmaydi. Ishning tugal zamiriga qarasak, roman bu-jumla, she'r ham-jumla, komediya ham-jumla, axborot, ilmiy tadqiqot ham-jumla. Yozuvchiga ham, tarjimonga ham eng muhimi –jumlanı – o'z jumlasini chiqara olishida. Jumla chiqsa-uslub chiqadi. Jumla Tolstoyni Turgenevdan, Lermontovdan ajratib o'ziga xos qilib turadi. Jumlasidan yozuvchini tanib oladilar [23, 99]. Yaxlit asar har qancha yirik bo'lmasin, u jumladan tarkib topadi. Qatrallar yig'ilib soyu daryo bo'lganidek, jumladan jam bo'lib roman, doston, lirik she'r yoki risolalarga aylanadi. Jumla-badiiy uslubning javhari hisoblanadi.

Jumlaning shirasi uning qanday qurilganida, qanday ohangdorlik kasb etganida. O'zbek tilida shirali so'z, shirali ovoz degan gap bor.

Shirali so'z va shirali ohangni biz tarjimada va uni baholashda eng muhim tushunchalar qatorida qarashimiz zarur.

Shirali so'z va shirali ohang tarjima estetikaning markazida turadi va uning mohiyatini belgilaydi.

Shirador jumla bo'lmasa, roman, hikoya yaxshi samara bermaydi. Xuddi shu so'zlarni tarjimonga nisbatan ham aytishimiz mumkin.

Tarjimonni biz jumla tuyg'usi rivojlangan, kamolga yetgan kishi deb tushunamiz.

Jumla yaratish tuyg'usini tarbiyalash-talantni tarbiyalash-talantli tarjimonlarni tarbiyalash, yana ham to'g'rirog'i, tarjimon talantini tarbiyalash deganidir.

Tarjimonlik haqida so'z borarkin, tarjimonlik talanti haqida ham fikrlash, so'z yuritish nihoyatda o'rinlidir.

Talantsiz hech bir ijod bo'lmaganidek, talantsiz tarjimon ham yuzaga chiqmaydi. Shuning uchun bu o'ziga xos qadimiy mutaxassislik to'g'risida so'z yuritganda, ixtisos ko'nikmalari, bilimlari hosil qilishni talantni uyg'otish va tarbiyalash bilan birga doimo qo'shib olib borish qobil zamonaviy mutaxassislar yetishtirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tarjima asliyatdan nusxa ko'chirish emas. Tarjimada asliyatdagi so'zlar, birikmalarning ma'nolari ko'chirilmaydi, qanday bo'lsa shunday tiklab qo'yilmaydi, balki boshqa tildagi yaqin ma'nolar bilan ifodalanadi.

A.P.Chexovning "Niqob" hikoyasida personaj tilida:

"Это странно, это...это даже сверхестественно..." –degan juda qattiq ajablanish, norozilik, birovning kutilmagan qo'polliqi, adabsizligi, o'ta surbetligiga duch kelib, nima qilishni bilmay qolishlikni ifodalaydigan jumla o'tadi.

Hikoyani Abdulla Qahhor sodda va o'zbekona tarjima qiladi. Yuqoridagi jumla o'zbek tilida shunday ifodalanadi:

"Bu qanday bo'ldi...Bu hech aqlga sig'maydigan ish-ku.."

Bu juda yaxshi tarjima. A.Qahhor Chexov hikoyasining so'zlarini qanday bo'lsa shunday ma'nosini berib qo'ya qolmaydi. Asl matnda so'zlar Chexovcha oddiy, unchalik murakkab emas. Tushunishga oson. Ularni ko'p vaqt sarf qilmay va uzoq o'ylab o'tirmay chiqarish mumkin tarjimada.

Asliyatdagi jumalarni o‘zbekcha tarjimasidan bexabar o‘g‘irishga harakat qilib ko‘rilganda:

“bu g‘alati, bu...bu hatto g‘ayritabiiy”...

Yoki:

“bu qiziq, juda qiziq, bu...bunga odam ishongisi kelmaydi”...

Yoki “bu nimasi, tavba, bu ...juda haddan oshib ketdi-ku”...

Asliyatni o‘zbekcha badiiy talqin qilish hatto Chexov jumlarini yanada ixchamlaydi. Ortiqcha bo‘lib ko‘ringan “bu...bu”larni olib tashlaydi. Asliyatni chin yozuvchilarcha talqin etadi. Tarjimaning go‘zalligi, uning haqiqiy ijod ekanligi mana shunda. Bu yerda asliyatdan qochib yoki chetlanib turib unga maksimal yaqinlashish hamda badiiy talqin tushunchalarimizni eslab qolaylik. Ularni ma‘lum ma‘noda tarjima qilish ijodiy prinsiplari deb atash o‘rinli. Chunki ularga bundan keyin tarjimalar matnlari tahlillarida, tarjimon mahorati va u qo‘llagan uslublarni tushuntirishda “qochish”, “yaqinlashish”, “badiiy talqin” tushunchalariga prinsip sifatida tez tez murojaat qilamiz [21, 56].

Badiiy adabiyot tarjimalarida asliyatdan qanday bo‘lsa shunday, ya‘ni so‘zma-so‘z nusxa ko‘chirish shart emas. Biroq, bu badiiy talqinda faqat va faqat ma‘nolar tarjima qilinadi degani ham emas.

Rang – barang yo‘nalishlar ichida madaniy va ilmiy yo‘nalishlari ham mavjud bo‘lib, ularda ilmiy, madaniy tomonlariga diqqat qilinadi.

2.2. Tarjimonning nutq faoliyatida ijodkorlik

Tarjimaning bosh xossasi uning so‘z san‘ati ekanligidadir. So‘zning fikrni ifodalash xususiyati, ta‘sir quvvatiga ega ekanligi tarjimani san‘at darajasida tadbiq etish imkonini beradi. Tarjimada ikki xalq va ikki til, ikki ma‘naviy hayot, ikki milliy madaniyat, ikki davr va ikki adib o‘rtasidagi bir-biriga chambarchas bog‘liq munosabatlarning ham ko‘rinishini e‘tiborga olish zarur.

Tarjima qilinayotgan tekst yoki nutqning qandayligidan qat‘iy nazar, bir tildan boshqasiga o‘girilayotgan har qanday ish ya‘ni, har qanday tarjima uchun umumiy bo‘lgan ikki holat bor:

Tarjimanning maqsadi: asl nusxa tilini bilmagan kitobxon yoki tinglovchini o'sha asar teksti yoki mazmuni bilan iloji boricha aniq, to'la to'kis tanishtirish;

Tarjima qilish: muayyan til vositalari yordamida ifoda etilgan narsa boshqa til vositalari asli bilan to'la mos ifodalash demakdir.

Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatlilikini taqozo etadi. Asliyat va tarjima matnlari mazmunining o'zaro mos kelishi zarurligi ekvivalentlikni tarjimaning asosiy sharti ekanligini ko'rsatadi. Tarjima amaliyoti sirlarini mukammal egallagan va uning nazariyasi bilan puxta qurollangan tarjimongina asliyatga ekvivalent tarjimalar yarata oladi.

Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, etika-estetika va boshqa fanlar nutq tizimining alohida-alohida olingan tarkibiy qismlari bo'lgan elementlarni shu tizimdan ajratib, ushbu ajratib olgan elementini o'xshashlik tamoyili asosida tahlil qiladi.

Muloqot jarayonida so'zlovchilar tomonidan tilning qo'llanilishi va so'zlovchilarning bilimlarini birlashtiruvchi sifatida ritorika, stilistika, nutq nazariyasi, nutq faoliyati shu kabi doiralarda uzoq o'rganilish tarixiga ega bo'lgan ko'plab muammolarni qamrab oladi.

Har qanday asliyat tarjimonda ma'lumotga nisbatan shaxsiy munosabat shakllanadi. Lekin tarjimon bunday shaxsiy munosabatning tarjima aniqligiga putur etkazmasligiga intilishi zarur. Shu ma'noda tarjimon nutqiy mahorat jihatdan neytral bo'lishi kerak [31, 127].

Tarjima matnini qabul qiluvchi yetarli fon bilimlarga ega emasligi asliyat matnda ko'zda tutilgan ma'lumotni ochib berish zaruriyatini tug'diradi va tarjima matniga kerakli to'ldirish va aniqliklarni kiritishni talab etadi. Bu jarayon tarjimaning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi.

Nutq turlicha hajmdagi fonetik bo'laklardan tarkib topgan bo'ladi. jumla, takt, so'z, bo'g'in va tovush nutqning ana shunday bo'laklari hisoblanadi. Jumla-nutqning ikki to'xtam oralig'idagi ohang butunligi bo'lib, u ko'pincha gapga teng bo'lishi mumkin.

Takt- jumlaning ikki qisqa to'xtalish orasida keluvchi va bir bosh urg'u bilan aytilgan bo'lagidir.

Jumla yoyiq tarkibli va yig'iq tarkibli bo'ladi. jumlani gap tushunchasi bilan aralashtirmaslik lozim. Gap grammatik tushuncha hisoblanadi.

Fonetik so'z- nutqning alohida bir urg'u bilan aytiladigan bo'lagi bo'lib, u takt ichida va alohida qo'llanadi.

Bo'g'in- o'pkadan chiqadigan havo oqimiga berilgan bir zarb bilan aytilgan tovush yoki tovushlar yig'indisiga bo'g'in deyiladi. Bo'g'in asosini unli tashkil qiladi. Shuning uchun ham so'zda nechta unli tovush bo'lsa, bo'g'inlar soni ham shuncha bo'ladi.

Ingliz tilini chet tili sifatida o'rganuvchi talaba uchun va o'zlashtirish uchun ancha qiyinchilik bo'lishi mumkin. Biroq tarjima nutqini mahoratiga qarab haqiqiy inglizlardek gapira boshlasa, nutqiy tayyorgarlik bilan o'sib boradi. Ko'p hollarda nutq jarayonida ijodkorlik mahoratiga bog'liq [34, 154].

Tarjima sohasida bir yorqin, xarakterli tarjima maktabi yoki tajribalari boshqa ko'p va rang- barang tarjima tajribalari va maktablari uchun umumlashma ahamiyatiga ega xulosalar chiqarish, taxllillar olib borishga imkoniyat va material beradi. Shuning uchun ham biz tarjimada interpretatsiya masalasiga keng karab Abdulla Qahhor ulug' tarjima maktabining mahorat qirralariga murojaat qilyapmiz. Abdulla Qahhor juda yirik yozuvchi, dramaturg, hikoyanavis va juda o'tkir so'z ustasi, qilqalam adib bo'lganligi uchun uning tajribalari, tarjima ijodining laboratoriyasi, tarjima ijodining psixologik xususiyatlari nihoyatda qimmatli. Uning tarjima ijodi til mahorati, tasviriy ifoda vositalarining qo'llash rang-barangliklarini har tomonlama ochish, ko'rib o'tishga boy material beradi. Abdulla Qahhor tarjima jarayonida asliyatni talqin etarkan, ayniqsa asliyatning obrazli dunyosini chiqarish, uni yo'qotib qo'ymaslikka. Tarjima tilida to'liq mazmundor ekvivalentlarini yaratishga alohida ahamiyat beradi. Asliyat obrazlarini tarjimada to'liq va asliyatga muvofiq tarzda chikarish - Abdulla Qahhorning tarjimada qo'llaydigan yaxshi ko'rgan prinsiplaridan biridir.

Tarjimonning topqirligi va kashfiyotchiligi uning o'zi tarjima qilishga bel bog'lagan asar ichiga to'la va har tomonlama kirib borishi, muallif badiiy va hayotiy g'oyalarini nozik idrok etishi, bu g'oyalar ichida ular xuddi o'z g'oyalari kabi yashashi, ular ruhoniyyatidan bahramand bo'lib nafas olishiga bog'langan bo'ladi. Asar ichiga chuqur kirib borish bilan tarjimonning kashfiyotchiligi kuchga kiradi va haqiqiy mo'jizalar yarata boshlaydi. Asar ichiga tarjimonning teran kirishi, asar g'oyalari ichida nafas olishi tarjimaning muvaffaqiyatli chiqishi. kitobxonlar tomonidan muhabbat bilan kutib olinishi va zamonlar o'tishi bilan ham eskirmasligining garovidir. Tarjimon ixtiyor-beixiyor o'z ona tiliga o'girayotganda, albatta, o'zini cheklashga majbur bo'ladi [38, 199]. Originaldagi barcha so'zlar va ifoda shakllarini to'laligicha o'z ona tili stixiyasiga sig'dirolmaydi. Xohlaydimi-yo'qmi, tarjima matni qisqaradi, torayadi, ba'zan esa zaiflashadi. Tarjimon shu xoh-bexoh yuz bergan cheklanishlar, yo'qotishlarning o'rnini to'ldirish uchun o'zidan me'yorni saqlagan xolda nimalardir qo'shadi, matn obrazlari yoki g'oyalari, yoki fikrlar dunyosini kuchaytiradi. Tilning va so'zlarning yangi ilgari ko'rilmagan qirralini ochadi. Tarjimaga o'z talantining yangi qirralarini namoyon qilish imkoniyati deb qaraydi.

2.3. Tarjimonning psixologik mahoroti

Ma'lum bo'ladiki, ijodiy quvvat qanchalik yetuk bo'lsa, uning tarjima san'atidagi imkoniyati, ruhga kira olish qobiliyati shuncha samarador bo'ladi. Uslublar yaqin kelib qolgaida yaxshi tarjima ato etish — bir qobiliyat, biroq turfa xarakterli uslublarga ham kalit topib, yaxshi tarjimalar bunyod etish — yana boshqa mahorat, ta'bir joiz bo'lsa, tarjimaviy mahoratning oliy darajasi.

Bizni qiziqtirayotgan narsa tarjimonni psixologik nuqtai nazardan o'rganishdir. Badiiy tarjima psixologiyasi o'zining homilalik davrshlashtirishni boshidan kechirmokda. Ajabmaski, u yaqin vaqtlar ichida o'zining samarasini ko'rsatib qoladi.

Badiiy tarjima psixologiyasi (buni qisqartirib BTP deb olamiz) bo'yicha mamdakatimizda sanoqli ilmiy ishlar qilingan. Bu ilmiy ishlarda ham BTP fan sifatida asoslab berilganicha yo'q.

Avvalo tarjima psixologiyasining qanday psixologik fanlar bilan aloqadaligi haqida fikr yuritamiz. Tarjima psixologiyasi psixologiya fanining teng huquqli tarmoqlaridan hisoblanib, asosan uchta psixologik yo'riq bilan aloqaga kirishadi. Bular: tarjima psixologiyasi, badiiy ijod psixologiyasi va adabiyot psixologiyasi.

Shunisi tahsinga loyiqki, uzoq o'tmish olimlari asarlaridan olingan tarixiy, hayotiy dalillar asar to'qimasiga mohirlik bilan singdirib yuborilgan. Tarixiy faktlardan badiiy barkamol obraz yaratishgacha bosib o'tilgan yo'l yozuvchi ijodiy zahmatining mag'z-mag'zini tashkil etadi.

Xalqlar bir-birlaridan uzoqlashib emas, bir-birlariga yaqinlashib, xamkorlik qilib ravnaq topadilar. Yaxshi, munosib hayotga erishib, ijtimoiy-iqisodiy taraqqiyotga muyassar bo'ladilar.

Shekspirning "Hamlet" tragediyasida, 1 aktning birinchi ko'rinishida Fransisko o'z o'rniga poyloqchilikka turgani kelgan Bernardoni tanib, "Bernardomisiz?"- deb so'raydi. Bernardo esa: "Xuddi o'zi", - deb javob beradi. Shu yerda rus tiliga qilingan M. Lozinskiyning tarjimasida Bernardo haligi savolga: "Он" - deb javob beradi. Rus tilida bu yaxshi jaranglaydi. Lekin uzbek tilida "u" deb tarjima qilib bo'lmaydi. Eshitgan quloqqa xunuk chikadi. Kulgi bo'lib ham tuyuladi [35, 189]. Shuning uchun ham o'ttizinchi yillarda «Hamlet»ni birinchi marta uzbek tiliga tarjima qilgan Abdulhamid Sulaymon Cho'lpon buni "Xuddi o'zi" - deb ag'dargan. Bu yerda "ha, men, yoki Menman" - deb olish ham mumkin edi. Lekin situatsiya uchun bunda "Xuddi o'zi" - deb aytish juda o'rniga tushadi. Joyiga qarab tarjima qilish, ya'ni tasvirlanayotgan situatsiyani doim xisobga olish va so'zlarni shu situatsiyaga moslash hamma vaqt juda muhim, birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Bunda tarjimondan tasvirlanayotgan voqeaning ichiga kirish, uni tom ma'noda ijodkorona anglash talab qilinadi. Yuqoridagi situatsiyaning

davomida Bernardo tabiiy ravishda: "Все было тихо?" - deb ham so'raydi. Cho'lpon bu o'rinda: "Hammasi joyidami?" yoki "Tinchlik-xotirjamlikmi?" - degan tarzda tarjima qilsa bo'lardi. Lekin unga bu kabi jumla variantlari odmi va jo'n tuyulsa kerak-da, u qisqa jumlagacha boshqacha talqin beradi: "Poylab turganingda, tinchlikmidi?" Lozinskiy jumlasiga qaraganda, Cho'lponning jumlasini cho'ziqroq va birmuncha o'ng'aysizroq ham tuyuladi, albatta. Lekin u boshqa bir jihatdan o'zini oqlaydi ham. Cho'lpon vaziyatni ravshanlashtiradi. Unga poylab turganingda, deb aniqlik kiritib o'tyapti.

Ilmiy asarlarni tarjima qilishning o'ziga xos tomonlari juda ko'p. Har bir fan yoki muayyan fanning ayrim-ayrim jabhalariga oid asarlar tarjimasining ham xususiy jihatlari bor. Hatto har bir asarni o'girishning o'ziga xos murakkabliklari bo'ladi. Tarjima murakkabliklarni darajasini esa o'sha asarning qaysi tilga o'girilayotganligi, ya'ni asliyat va tarjima tili o'rtasidagi o'zaro munosabatlar belgilaydi. Aytmoqchimizki, muayyan bir tilga o'girish talay murakkabliklar tug'dirsa, boshqa tilga tarjima xuddi shu mushkulliklarsiz ham amalga oshishi mumkin.

Ma'lumki, she'riyatni tarjima qilish nasr tarjimasiga qaraganda og'irroq. She'riy tarjimada ijodkor asarda ifodalanayotgan fikrningina, emas, asar tashqi ko'rinishini; nutq tovushlari, ularning akustik xususiyati, pauza, ohang, tovushlarning tartibli birikuvi va so'zning asosiy ma'nosiga qo'shimcha ma'no berish ham e'tiborga olinadi. She'rning barcha fonetik va intonatsiya unsurlari — vazn, ritm o'zlarining turli-tuman dinamik shakllari bilan o'zaro bog'langan bo'lib, asarning poetik ma'nosini ifodalashga xizmat qiladi.

Original ijodning xarakterli tomoni shundaki, ijodkor haqiqiy jonli, real voqelikni o'rganadi, mana shu voqelikka xos bo'lgan barcha xususiyatlarni ko'radi, biladi, his qiladi. Qisqacha qilib aytganda, ijodkor o'z davrining aktiv farzandi sifatida, jamiyatning dardu alami va shodliklari bilan birga yashaydi. Tarjimonda bo'lsa, mana shu yaratilgan badiiy asarni o'qish jarayonida o'sha asarni boshqa tilga o'girish mayli paydo bo'ladi. Demak,

muallif ijod qilish jarayonida bevosita voqelik bilan munosabatda bo‘ladi. Tarjimon bo‘lsa — badiiy voqelik bilan.

Ammo bizning oldimizga qo‘ygan maqsadimiz bu emas, balki tarjima jarayonining ijodiy jarayon ekanligini idrok etishdir. Mana shu ikkilamchi ijodiy jarayon badiiy ijod psixologiyasini o‘zaro bog‘lab turuvchi ko‘prikdir, ya’ni mana shu jarayonni har ikkala soha ham o‘z yo‘rig‘ida o‘rganadi [33, 65].

Faraz qilaylik, birorta shoir tarjima bilan jiddiy shug‘ullanadi va u qandaydir mashhur shoirning ijodidan juda ko‘plab tarjimalar qilgan. Shoir mana shu tarjimalar davomida o‘sha mashhur shoirning tafakkur tarzi, uning ruhiy olami bilan tobora chuqurroq tanisha boradi. Bu tanishish shu darajaga yetadiki, hatto u o‘sha mashhur shoir kabi o‘ylaydigan, tashqi muhit voqealarini o‘sha shoir kabi idrok etadigan bo‘lib qoladi.

Uzoq vaqt jiddiy tarjima bilan shug‘ullanish tarjimon shoirning o‘z ijodiga ta’sirini o‘tkazmasdan qolmaydi. Bizning fikrimizcha, taniqli shoirimiz Abdulla Oripov qalamiga mansub bo‘lgan ajoyib «Jannatga yo‘l» asarining yaratilishida uzoq vaqtlar Dante Aligerining «Iloxiy komediya»si ustida olib borgan tarjima ishlarining ta’siri bo‘lsa kerak.

Yangi bir muhim muammo, tarjimonga xos milliy xususiyatlar va uni o‘rab turgan muhitning tarjimaga ta’sir etishidir.

Tarjimon boshqa olis xalq shoirining asarlarini o‘z tiliga tarjima qilayotganda, uning ya’ni tarjimonning milliy-madaniy xususiyatlari tarjimaga ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Bu ta’sir anglangan holda, gohida beixtiyor sodir bo‘lishi mumkin.

Zahiriddin Bobur Farg‘ona muzofotini tasvirlab, jumladan, deydi: «Ushbu jonibtin o‘zga hech jonibtin qish yog‘i kela olmas». N. N. Pantusov mazkur jumlaning rus tiliga bunday o‘girdi: : «Только с этой стороны, и ни с какой другой не может проникнуть сюда враг в зимнее время». Shundan keyin u «qish» so‘zining Boburda grammatik belgilarisiz (kelishik qo‘shimchasisiz) kelish sababini tushuntirib, bu so‘z J. Leydenning inglizcha tarjimasida tushib qolganini va u ma’noni buzganini ko‘rsatib o‘tdi. Inglizchada o‘qiymiz: „And an that siehl

alene caitn be entered by boreign enemis". V. Petrovskiy tarjimasida ham to'liq chiqmagan: «С этой только стороны и может войти в нее чужеземный враг». Petrovskiy inglizchadan o'g'irgani uchun xatoni takrorlagan. Bobur qishda tog'larning ustini qor bosib, yo'llarning berkilishi, Farg'ona vodiysi o'ziga xos tabiiy qal'aga aylanishini aytmoqchi bo'lgan. N. F. Petrovskiyda esa bu ma'no aks etmagan. Nemis tarjimoni Klaprot ham jumlaning mazmunini to'g'ri berolmagan.

Tarjima psixologiyasi bo'yicha jiddiy tadqiqotlar olib borilsa, tarjimon ruhiyatining muhim tomonlari o'rganilsa, unda sodir bo'ladigan protsesslarning qonuniyatlari kashf etilsa, bu badiiy tarjima saviyasining oshishiga katta ta'sir ko'rsatgan bo'lardi. Adabiyot psixologiyasi haqida ikki og'iz so'z. Obrazli qilib aytganda, so'z san'ati adabiyotninggina zilol chashmasidan bahramand bo'ladi.

San'atning barcha turlari bilan emas, balki faqat so'z san'ati — adabiyot bilan bevosita bog'liqdir. Shuning uchun shartli holdagina san'at psixologiyasi bir qism sifatida qaraladi.

Birorta fan haqida fikr yuritganda, o'sha fanning tadqiqot ob'ektini va o'rganish predmetini aniqlab olish lozim. Unda endigina hayot yuzini ko'ra boshlagan tarjimon psixologiyasining tadqiqot ob'ekga va o'rganish predmetiga aylanishiga nima sabab?

Tarjimon psixologiyasining tadqiqot ob'ekti haqida. Tarjimon psixologiyasining tadqiqot ob'ekti — tarjimon. Ammo masalaning noaniq tomoni ham bor [40, 124]. Agar biz tarjimonni bir butun deya qabul qilsak, bu turli xil jarayonlar sodir bo'ladi. tarjimon psixologiyasini mana shu ko'p o'zgarishlar jarayonlaridan faqat bittasi — psixologik jarayondir.

Boshqacha aytganda, tarjimonning ruhiy olami va tarjima jarayonidagi mana shu ruhiy olamda sodir bo'ladigan o'zgarishlardir.

II BOB BO'YICHA XULOSA

Xulosa o'rnida shunday deyish mumkinki, tarjima jarayonida tarjimonning nutq madaniyati va san'ati juda muhim ahamiyat kasb etishini alohida aytib o'tish lozim. Badiiy so'z san'atkorlari o'zga millatlar tiliga xos aksint va leksik

grammatik nuqsonlar bilan soʻzlashish jarayoni vositasida ularni nutqiy taʼsiri yaratadi, bunday xususiyat tarjimada ijodiy talqin etilishi va ularning qaysi millatga mansubligi haqida toʻgʻri tasavvur beradi.

Tarjima jarayonida sanʼatkor son sanoqsiz amaliy mushkulotlarga duch keladiki, bu hol tarjimaning ijodiy faoliyat ekanligi tufayli tarjimondan har bir muammoli holat yechimiga ijodiy yondashishni talab qiladi. Asl nusxaga ijodiy munosabatda boʻlishgina tarjimonning muallif maqsadiga muvofiq tarza amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ammo, toʻla-toʻkis, adekvatlikka erishish uchun birgina mahorat va isteʼdod bilan bogʻliq ijodkorlikning oʻzi kifoya qilmaydi. Ilm-fan tarmoqlarining hozirgi davrdagi rivojlanish darajasi tarjima amaliyoti muammolarining chuqur ilmiy mushohada ishtirokisiz ijodiy hal etishni taqozo etmaydi. Demak, asliyat ruhini imkon qadar toʻla va toʻgʻri aks ettiradigan tarjima matni yaratish uchun tarjimon ham, isteʼdodli, badiiy soʻz ustasi, ham talantli tarjimashunos boʻlishi kerak.

Maʼlumki, har bir millat farzandi boshqa bir tilda soʻzlashganda, koʻpincha vaziyatga zid holda, oʻz tili fonetik xususiyatini maʼlum darajada saqlab qoladi, oʻziga xos leksik va grammatik nuqsonlarga yoʻl qoʻyilmaydi.

Tilning meʼyori talablari javob bermaydigan soʻz talablari, sintaktik munosabat shakllaridan foydalaniladi.

Tarjimon asliyati mansub boʻlgan tilda oʻziga xos tarzda fikr bayon qilgan oʻzga til sohibi nutqning xususiyatini tarjimada aks ettirish vazifasini oʻz oldiga maqsad qilib qoʻyadigan, u har bir lisoniy vositani shakl va mazmun birligini uygʻun holda qayta yaratish ustida bosh qotirishi lozim.

III BOB

O‘ZBEKISTONDA TARJIMASHUNOSLIK VA UNING FAOLİYATI

3.1. O‘zbekistonda tarjima tarixi

Biz ushbu bitiruv malakaviy ishida o‘zbek tilidagi asarlarning ingliz tilidagi tarjimasini ilmiy tomondan o‘rganib chiqish davomida, avvalambor «tarjima» so‘zining qayerdan kelib chiqqanligi va tarjima tushunchasiga oydinlik kiritishni lozim topdik. Shunga ko‘ra ishimizning birinchi bo‘limida tarjima tushunchasiga oid o‘zbek va nemis olimlarining fikrlari, tasniflari bilan tanishib chiqamiz. Bundan tashqari tarjima turlari, tarjimon mahorati va unvon va mansab nomlari, shuningdek ular to‘g‘risidagi olimlarning nazariy qarashlari bayon etiladi.

Nazariy tarjimashunoslik O‘zbekistonda nisbatan yangi soha, tarjimashunoslik ilmiy asosda XX asrning 30-yillarida shakllana boshladi.

Tarjima tarixi dunyo mamlakatlarida ming yillarni qamrab oladi. “Ilyada”, “Tavrot”, “Avesto”, “Injil” kabi muqaddas asarlar tarjimalaridan boshlanadi. Tarjima tarixi sohasi bu juda ko‘hna, tarjima nazariyasi esa yosh.

Tarjimashunoslik haqiqiy ma’noda jahon miqyosida olganda XX asrning 60-yillarida chin ravnaq olishga erishdi.

Yevropada xuddi mana shu davrda tarjimaga san’at deb qarash mustahkamlandi. Shu davrdan e’tiboran “Tarjima san’ati” “Tarjima nazariyasi va amaliyoti” “Tarjimaning lingvistik nazariyasi” “Tarjimaning nazariy muammolari” kabi ilmiy yo‘nalishdagi turli mamlakatlar va ayniqsa Yevropada ko‘plab tadqiqot ishlari, darsliklar, qo‘llanmalar, maxsus nazariy kitoblar nashr etildi.

Shular bilan bir qatorda Yevropada “Vavelon” “Lingvist” “Tilmoch” “Tarjimon”ga o‘xshash muntazam tarjimashunoslik ishlarini chiqarish va tarqatish izchil yo‘lga qo‘yildi [34, 154].

“Tarjimonlar Xalqaro Federatsiyasi” tuzilib ish boshladi, tarjima masalalari bo‘yicha doimiy tarzda xalqaro konferensiyalar, ish yuritishlar o‘tkazish yaxshi an’anaga aylandi. Bu Xalqaro anjumanlar tarjimashunoslikning milliy zaminlarda rivojiga xam o‘ziga xos turtki berdi.

XX asrning 30-yillarida o'zbek adiblari va tarjimonlari jahon adabiyoti namunalarini o'zbek milliy tiliga o'girishga alohida g'ayrat va o'z say harakatlarini ko'rsatdilar. Natijada buyuk tarjima harakati yuzaga keldi.

O'zbekistonda tarjimashunoslik fani jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan ekan. Bizda uni yaratilishi, katta istiqbol sari borish uchun zarur adabiy- tarxiy an'ana, lisoniy uslubiy zamin, sharoit mavjud. O'lkamizda tarjima nazariyasi bo'lgan ehtiyoj juda ham baland bo'lib, balki, ko'p asrlik tarjima amaliyoti qaror topib, madaniy hayotda tomir otgan turli tarjima maktablari to'plagan boy, rang barang tajribalar asosida tug'ildi.

Hozirgi kunda asosan tarixiy-ilmiy ahamiyatga ega bo'lib qolgan katta tarjima adabiyotini yaratgan adiblar nazariya sohasida hamma narsani faqat jumboq holda qoldirib ketganlar deb hisoblash umuman mumkin emas.

Ba'zan ular tarjima qilinayotgan muallif va uning ijodiga munosabat bildirayotganlar, tarjima qilish yo'l yo'riqlari haqida fikr bildirganlar.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy arab, fors, sug'diy, xorazmiy, suryoniy, yaxudiy, hind va yunon tillarini bilgan, tarjima bilan ham muntazam shug'ullangan. U ma'mun akademiyasida amalga oshirilgan tarjimalardan foydalanish bilan birga asl nusxadan ham foydalanardi. Olimning tarjima bilan bog'liq ko'pgina fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Biror bir xalq o'z qobig'ida, o'z o'zicha rivojlanmaydi. U boshqa xalqlarning yutuqlari, tajribalarini o'zlashtirgan va rivojlantirgan holda yuksaladi. Vatanimizning kelajagi, xalqimizning ertangi kuni, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro' e'tibori avvalo farzandlarimizning unib o'sib, ulg'ayib, qanday inson bo'lib hayotga kirib borishiga bog'liqdir. Biz bunday o'tkir haqiqatni hech qachon unutmasligimiz kerak.

Tarjima to'g'risida bildirilgan yuqoridagi mulohazalarning barchasida jon bor. Chunki ularning har biri tarjimani bir tomondan ta'riflab, bu haqida umumiy tushunchani to'ldirishga xizmat qiladi. Demak, tarjima-ko'p sohali, sertarmoq murakkab faoliyat. Tarjima insoniyat faoliyatining eng qadimiy turlaridan biri

boʻlib, u tufayli biz insoniyat taraqqiyoti tarixini barcha tavsilotlari bilan ochiq oydin tasavvur etamiz.

Tarjima xalqlar oʻrtasidagi doʻstlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular oʻrtasidagi iqtisodiy-siyosiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.

Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining oʻzaro aloqasi va bir-biriga taʼsiri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand boʻladilar, ularning estetik tuygʻulari oshadi, didlari oʻsadi, ularda goʻzal narsalar haqida tushunchalar hosil boʻladi. Tarjima tillarning kamoloti uchun zaruriy vosita sifatida, ularning rivojlanish surʼatini jadallashtiradi, lugʻat boyligini oshiradi va takomillashtiradi. Tarjima inson maʼnaviy hayotini boyitadi, ona tilining imkoniyatlarini kengaytiradi, uni serjilo qiladi.

Tarjimaning bosh xossasi uning soʻz sanʼati ekanligidir. Soʻzning fikrni ifodalash xususiyati, taʼsir quvvatiga ega ekanligi tarjimani sanʼat darajasida tadbiq etish imkonini beradi. Tarjimada ikki xalq va ikki til, ikki maʼnaviy hayot, ikki milliy madaniyat, chambarchas bogʻliq munosabatlarning ham oʻziga xos koʻrinishini eʼtiborga olish zarur [29, 192].

Tarjimaning maqsadi-xorijiy til lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnni ona tili materiallari asosida qayta yaratishdan iborat. Buning uchun tarjimon, birinchi navbatda, asl nusxani toʻla-toʻkis idrok etishi, soʻngra uni oʻz tilida bekami koʻst qayta ifodalash darkor. Muallif yaratgan badiiy-estetik voqelikni toʻlaligicha idrok etish uchun tarjimon keng mushohada qila olish xususiyatiga ega boʻlishi va reklama matnni tarkibidagi lisoniy vositalarning mazmuniy va uslubiy-estetik jihatlarini toʻgʻri anglashi, shu bilan birga muallif nazarda tutgan bosh gʻoyani, uning niyat va maqsadlarini, ochiq-oydin tasavvur etishi zarur. Natijada tarjimon tomonidan qilingan tarjima xuddi asliyat oʻz kitobxoniga qanday estetik zavq baxsh etsa, uning tarjimasi ham asliyatda mutolaa qila olmaydigan kitobxonga xuddi shunday taassurot inʼon etsin.

O'zbekistonda tarjima tarixi aslyat va tarjima tillari leksik, grammatik va stilistik hodisalari o'rtasidagi uyg'un hamda tafovutli jihatlarni puxta o'zlashtirib olgan holda, aslyatning shakl va mazmun birligini ona tili vositalari yordamida qayta yaratishdan iboratdir. Bu tamoyillarga rioya qilmaslik tarjimada aniqlikning ifoda me'yorining buzilishiga, olib keladi [40, 173].

Asl nusxa muallifidan voqeylikni to'g'ri aks ettirish talab etilsa, tarjimondan asl nusxaning bekami ko'st talqin etish talab qilinadi.

Tarjima qilish jarayonida ikki holat ro'y beradi, ya'ni birinchidan, tarjima qilish uchun o'rganilayotgan narsani tushunish, anglash va talqin qilish kerak. Bu hodisa ona tilida ro'y beradi. Ikkinchidan, asar o'girilayotgan tilda muvofiq ifoda vositalari, ya'ni so'z, so'z birikmasi, grammatik formalarni topish lozim.

Tarjimaviy muvofiqlik yaratish uchun turli juft tillar vositalarini qiyosiy o'rganish, badiiy matnni estetik o'ziga xosligini, uning moddiy-mantiqiy, hissiy-ta'sirchan va obrazli tizimini tashkil etuvchi unsurlari tarkibidagi uslubiy va pragmatik xususiyatlarni aniqlash hamda stilistik asosga tayanish taqazo etadi. Til birliklarining uslubiy bo'yoq kasb etish xususiyati turli juft tillar birliklarining mazmuniy-uslubiy jihatlaridan o'zaro mos kelish kelmasliklari to'g'risida qaror qabul qilish imkonini beradi. Tarjimaning bunday tahlili mazkur sohadagi tasavvur va qarashlarni boyitadi. Ular nafaqat lisoniy balki til ma'lumotlarini tarkibidan tashqarida bo'lgan ruhshunoslik, jamiyatshunoslik, etnografik, milliy-tarixiy va boshqa qator jihatlarni o'z ichiga oladigan, g'ayriinsoniy omillarni, shuningdek, muloqotchilarning yuqori darajadagi bilimlarini nazarda tutadi. Bunday tadqiqot usuli asardagi til birliklarining vazifaviy ahamiyati va ularning muayyan matniy holatlarda adekvat o'girilish imkoniyatlari imkon qadar tadqiq qilish zaruratini tug'diradi.

Tarjima tarixida xuddi mana shunday qiyinchilik tug'diradigan jumlar soni ko'pchilikni tashkil qilgan holda ularga yechim ham shu darajada qiyinchiliklarni hal qilingan. Tillararo muloqotning alohida turi bo'lmish tarjima turli tillar matnlarining mazmunan teng qiymatliligini taqozo etadi.

Gʻaybullo Salomov Oʻzbekistondagi Tarjima nazariyasi asoslari ustida umumiy faoliyat olib bordi. U tarjimada milliy xususiyatlarni aks ettirishda katta eʼtibor bergan va frazeologizimlarni va sheʼriy tarjimalarning oʻziga xosligi ustida ishlagan.

Kitoblarda u tarjimada shakl va tarkibning yaxlitligini saqlab qolish toʻgʻrisida nazariy bilimlar bergan. Shuningdek, Gʻaybullo Salomov chet el tarjimonlari tomonidan qilingan “Boburnoma” hozirgi fors tiliga Murod Qarluqiy tomonidan tarjima qilingan. Qarluqiyning tarjimasini Gʻaybulla Salomov asl nusxaga yaqinroq deb topdi.

“Yaqinroq” soʻzining maʼnosi shundaki, u aniq, yaʼni toʻgʻridan-toʻgʻri tarjima qilingan deb xulosa chiqardi.

Tarjima ijodiy jarayon va unda baʼzi bir psixologik-ruhiy diqqatga sazovor holatlarni kuzatish mumkin. Chunonchi, kishi tarjima ishiga avvalo oʻziga hamroh, maslakdosh izlab, urinadi. Tarjima ogʻirchilikda boʻlsada, doimo ijodiy nafas bilan yashash, ijodning tirik tomirini ushlab turishga boʻlgan ulkan ehtiyojning mevasi.

Bizning qadim va hozir oʻzbek tarjimonlarimizga eski koʻz ilgʻamas zamonlardan Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Qutb Xorazmiy, Sayfi Saroyi va Alisher Navoiydan meros boʻlib kelayotgan, nasldan naslga oʻtayotgan katta bir eʼtiborga loyiq ijodiy mahsuldir.

XX asrning eng mahsuldor va eng sinchkov tarjimonlaridan biri Ozod Sharafiddinov oʻz tarjimachilik amaliyotida shu oliyjanob merosiy gʻoyani muvaffaqiyat bilan davom ettirdi. Undan juda katta ilmiy publissistik maʼrifiy va badiiy tarjima asarlari, yangi avlodga meros boʻlib qoldi. Uzoq vaqt mobaynida bunyod boʻlgan, ushbu tarjima merosini diqqat bilan kuzatgan kishiga shu narsa ayon boʻladiki, Ozod Sharafiddinov doimo va izchil tarzda tarjimaga jiddiy pragmatik nuqtai nazar hamda ijodiy sotsial bir maqsad bilan yondoshgan. U tarjima qiladigan asarlardan fikr izlagan.

3.2. Gid tarjimonlik faoliyatida -madaniyat

Mustaqil respublikamizda ta'lim tarbiyani isloh qilish, uni rivojlantirish, Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yoshlarga zamonaviy talablar darajasida bilim va tarbiya berish, o'quvchi yoshlar ongiga yuksak ma'naviy axloqiy fazilatlarni kamol toptirish, xalqimizning bilim salohiyatini yuksaltirish hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Shu o'rinda prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlarini aytib o'tishimiz lozim: "Hozirgi eng muhim, eng dolzarb vazifamiz jamiyatimiz a'zolari avvalombor, voyaga yetib kelayotgan yosh avlodni kamol toptirish, ularni qalbgga milliy g'oya, milliy mafkura, o'z vataniga mehr sadoqat tuyg'usini uyg'otish, o'zligini anglash milliy va umummilliy qadriyatlar ruhida tarbiyalashdan iborat" [2,34].

Tarjimada ijodiy hamkorlik muayyan asarning badiiy to'qimasi ichiga imkon qadar chuqur kirish uning obrazlari va g'oyalari dunyosi hamda san'ati, mahorati sirlarini xuddi adibning o'zi kabi anglash, tushunish, his qilish degani bo'ladi.

Yaxshi tarjima mana shunday tushunish, anglash, his qilish va shular zaminida asliyat tilidan tarjima tiliga yaxshi o'girish, asliyatni boshqa tilda qayta yaratishdir.

Tarjima-deganining o'zi asli shunday qayta yaratish, bir matnga teng ikkinchi matn dunyoga keltirishdir. Adib va uning asarlari, badiiy-uslubiy mahorati, sirlarini to'la anglab yetmagan tarjimon tarjimaga urinsa, afsuski, yaxshi natijaga erisha olmaydi [42, 157].

Tarjima psixologiyasining o'zi ham shunday tushunish, anglash va yorqin aks ettirish xususiyatlarining jamidan hosil bo'ladi.

Biz bilamizki, tarjimonlik kasbi ham turli yo'nalishlarga bo'linadi. Kimdir badiiy tarjima bilan shug'ullansa, kimdir informativ tarjimaning ustasi bo'lishi mumkin, ya'na kimdir yozma ravishda o'z tarjimalari bilan xalqlar o'rtasidagi aloqalarni, urf-odatlarni bog'lashga urinadi. Bu yo'nalishlar albatta tarjimonning harakterlaridan kelib chiqib uni tarjimaning turli sohalarini tanlashga olib boradi. Masalan, kundalik hayotimizda gapga chechan, gapirayotgan vaqtda tinglovchi

e'tiborini torta oladigan kishilarni ko'p uchratamiz. Bunday kishilar albatta chuqur bilimi, mulohazasi bilan gid tarjimon bo'la olishi mumkin. Yana kimlardir chuqur salohiyatga ega bo'ladilar-u, omma oldida gapirishga no'noqroq, ya'ni o'z fikrini yozma ravishda, shoirona so'zlar bilan ifodalay olmaydilar. O'z-o'zidan ma'lumki, bunday toifadagi kishilar badiiy tarjimalarni: ertak, hikoya, qissa, she'r, felitonlarni maromiga yetkazib tarjima qiladilar.

Informativ tarjima ustalari esa hayotga real qaraydigan, faqat ilmiy ishlar bilan shug'ullana oladigan kishilar bo'ladilar. Albatta bu yerda psixologiya haqida so'z yuritish, tarjima jarayonida psixologiyani ahamiyatini ta'kidlab o'tish ham maqsadga muvofiq. Ammo ushbu ishda yuqoridagi tarjima sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muammolarni ko'rib chiqish ahamiyatga molikdir, zero, tarjimaning boshqa xillarini o'rgangan holda gid tarjimonlik faoliyatidagi madaniyat haqida ham ma'lumot berib o'tish joiz. Muhtaram Yurtboshimiz xalqlar o'rtasidagi o'zaro aloqalar haqida "ma'naviyat va istiqloq" nomli asarida shunday ta'kidlaganlar: "Mana hozir biz dunyoning 130 nafar davlati bilan aloqa bog'ladek, bir qancha vakolatxona va elchixonalar ochildi. Har kuni turli davlatlarning vakillari kelib har xil masalalarni o'rta qo'yadi, lekin shuni alohida aytish kerakki, bu gaplarning tagida ma'no bor: Kuchingiz bo'lsa, qudratingiz bo'lsa, mana shu davlatning kelajagiga ishonsangizgina, sizni o'ziga teng ko'rib gaplashadi, aks holda, mensimaydi. Demak, biz kelajagimizni Mustaqil ravishda qurmasak o'zimizni har tomonlama himoya qilmasak, ichki va tashqi siyosatni oqilona o'tkazmasak, hech kim bizga hayrixohlik qilmaydi. O'zbekiston bugun Markaziy Osiyo mintaqasida balki ham siyosiy, ham ma'naviy jihatdan markaziy o'rinni egallaydi. Mamlakatimizning tashqi dunyo bilan aloqalari kun sayin kuchayib bormoqda". Yurtboshimizning yuqoridagi fikrlarini inobatga olgan holda xalqlar o'rtasidagi madaniy, siyosiy aloqalarni bevosita bog'lovchi, eng muhim shaxs bu albatta gid – tarjimonlardir.

Mana shunday fikrlarni bildirar ekanmiz, o'z o'zidan gid tarjimon kim, uning zimmasiga qanday vazifalar yuklatilgan, aslida qanday vazifalarni bajaradi degan savollar to'g'rilishi tabiiy holdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, gid tarjimon nafaqat sayohatlarga tarixiy yodgorliklar, memoriy obidalar haqida ma'lumot beradi balki, yurtimizga kelgan turist-sayyohlar gid tarjimon yordamida millatimizning takrorlanmas madaniyati, yuksak ma'naviyati haqida ham ma'lum bir tasavvurlarga ega bo'ladilar. Gid-tarjimonning o'zini tutishi, yurish-turishi, o'zgacha, o'zbekona, milliyligi hatto kiyinish madaniyatiga bo'lgan e'tibori ham, ma'lum bir maqsadlarda tashrif buyurgan mehmonlarda, xalqimiz hayoti va turmush tarzi haqida umumiy qarashlarni uyg'otish sabab bo'lishi mumkin. Ma'lum bir kasbni mukammal egallash uchun u kasbga aloqador sohalarni ham chuqur bilimdoni bo'lish darkor [12, 18].

Ayniqsa, tarjimonlik kasbi juda mukammal soha bo'lib, hamma ham yuksak darajada tarjimon bo'lolmaydi. Zero, bu kasbni mukammal egallash uchun chuqur bilim va ko'nikma va yetarli tajribaga ega bo'lish kerak, xatto o'z o'rnida mohir psixolog bo'lish ham kerak. Chunki, yurtimizga kundan kunga tashrif buyurishi ortib borayotgan sayyohlarning har birining o'z dunyo qarashi qolaversa, o'ziga xos qiziqishlari mavjud. Shu vaziyatda har kim gid-tarjimonga har xil munosabat bildiradi. Kimdir ish yuzasidan kelgan bo'lsa, kimdir nimanidir o'rganish uchun keladi. Ya'ni turli kasb doiralarini qamrab olgan kishilar tarjimon bilan o'z fikrlash doirasiga ko'ra turlicha muloqotda bo'ladi. Shuning uchun tarjimon o'zini har qanday vaziyatda ham vazminlik bilan saqlay bilish, kelishishda ham gapirishda zimmasiga yuklatilgan chegaradan o'tib ketmasligi lozim. Faqat kishini huquqini ko'rsatib, hiringlab gapirishi kimgadir yoqsa, qaysidir davlat vakillariga bu suykali shdek tuyulishi mumkin. Ya'ni psixolog ustasi bo'lgan tarjimon mehmonning kayfiyatidan fahmlab, vaziyatga qarab yo'l tutadi.

Gapirganda, aniq, ravon, shoshmasdan gapirsa har bir mehmon uni qayta so'roqqa tutishiga o'rin qolmaydi. Kiyinish orasida ham milliyligimiz, o'zligimizni saqlagan holda kiyinish kerak, ba'zilar o'ylashadiki biz o'zbekimiz, o'zbekligimiz kiygan kiyimlarimizdan namoyon bo'lib, lekin biz musurmon bo'lsakda, XXI taraqqiyot asrida yashamoqdamiz. Bizni mustaqilligimiz butun

dunyoga tan olingan gid tarjimonlar bir joyda o'tirishmaydi. Ular o'zlariga qulay va ixcham bo'lgan kiyimni kiyishsa, o'zi ham mehmonni ham xijolatga qo'ymaydi. Shunday tarjimonlar borki, ularni kiyinishi va o'zini tutishidan sayyohlar bilan ajratish mushkul. Yurtimizga kelayotgan mehmonlarning aksariyat qismi, Yevropaliklar bo'lganligi sababli tarixiy joylarda ochiq, sochiq, kalta kiyingan mehmonlarga ko'zimiz tushadi, ularni tushunish mumkin chunki, ularning mentaliteti shuni qabul qilgan, lekin, bizning tarjimonlarchi? Nahot tarjimon darajasiga erishgan shaxs Vatanimizning sha'nini himoya qilib, o'zbekchiligimizdan chiqmagan holda kiyinishi kerak bo'lsa! Axir sayyohlar tarjimonning yurish-turishi, kiyinishi orqali butun xalqimiz haqida tasavvur olib ketmoqdaku. Agar tarjimonlar shu mas'uliyatni o'z zimmlariga olib mehmonlarga chiroyli xizmat qilib kuzatishsa, yurtimizda turizm sohasi bundanda yuqori cho'qqilari zabt etishi ehtimoldan holi emas. Eng kerakli, muhim ma'lumotlarni ularning ongiga muhrlash bilan bir qatorda o'z milliyligimizni ham ular nazdida gavdalantirib yuborishga nima etsin?! Zero, tarjimon faqatgina xalqlar o'rtasidagi tilmochgina emas, balki millatlar madaniyati, an'anasi va tarixini yetkazib beruvchi eng muhim vositachi shaxslardir.

Mutaxassislarining ta'kidlashicha, gid xizmati – sayyohlik biznesining talab katta sohalaridan. Zero, har bir sayyoh boshqa mamlakat yoki shaharga borganida gid yordamiga ehtiyoj sezadi. Ushbu kasb egasi sayohat davomida mehmonga hamroh bo'lib, mehmonxonaga joylashishdan to tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish, muzeylar tomoshasiga borish uchun chiptaga buyurtma berishgacha bo'lgan katta-kichik tashkiliy ishlarni bajaradi. Bugungi kunda gidlar sayyohlik firma va agentliklarida, gid va tarjimonlik xizmatlarini taklif etuvchi kompaniyalarda, qo'riqxonalarda, madaniyat dargohlari – muzey, galereyalarda faoliyat olib bormoqda. Gid sayohat dasturiga kiritilgan ob'ektlarni va mavzularni chuqur bilishi, uni qiziqarli tarzda hikoya qilib, guruh e'tiborini jalb eta olishi, sayohatni unumli rejalashtirishi va o'tkazishi kerak.

– Markazimiz sayyohlik sohasi uchun gidlar, turoperatorlar, turagentlar, mehmonxona menejerlari, sayyohlik korxonalarining rahbarlari, mehmonxona xo‘jaligi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish bilan shug‘ullanadi, – deydi Respublika ilmiy-o‘quv konsalting markazi direktori Yelena Golisheva. – Markazimiz tomonidan sayyohlik korxonalari rahbarlari va turizm sohasida faoliyat ko‘rsatuvchi gidlar uchun har yili treninglar o‘tkaziladi. O‘z sayyohlik firmasini ochayotgan tadbirkorlarga maslahat xizmati ko‘rsatiladi. O‘n ikki yildan buyon markazimiz tomonidan ikki ming gid, ming nafar turoperator va mehmonxona xo‘jaligi xodimi tayyorlandi. “O‘zbekturizm” milliy kompaniyasi tizimidagi turistik firma va mehmonxonalar uchun yuzlab seminar-treninglar, ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy konferensiyalar o‘tkazildi. Turoperatorlik va mehmonxona faoliyati bo‘yicha metodik, Buyuk ipak yo‘li shaharlarining tarixiy-me‘moriy merosi bo‘yicha uslubiy, gid-tarjimon va turoperator kurslari tinglovchilari uchun ko‘mak sifatida elektron shakldagi metodik qo‘llanmalar tayyorlandi.

Mazkur ilmiy-o‘quv konsalting markazi tomonidan sayyohlik tashkilotlari xodimlarini turistik biznesni tashkil etish va boshqarishning zamonaviy shakl va uslublariga o‘rgatish bo‘yicha yangi uslubiy tavsiya va qo‘llanmalar, sohaga oid broshyura va bukletlar, zarur uslubiy adabiyotlar ham ishlab chiqilmoqda. Gidlarning malakasini oshirish maqsadida yirik sayyohlik kompaniyalari, mehmonxonalar, restoranlar, xorijiy sheriklar va investorlar bilan hamkorlikda amaliy seminarlar tashkil etilayotir. Mamlakatimizning gid-tarjimonlari va ekskursovodlari haqida ma‘lumotlar banki shakllantirilib, doimiy ravishda yangilab borilmoqda.

Sohada o‘ttiz yildan buyon ishlab kelayotgan oliy toifali gid Dilbar Abdunabiyevaning ta’kidlashicha, mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar yurtimizda amalga oshirilayotgan ulkan o‘zgarishlardan, barpo etilayotgan yangi-yangi zamonaviy binolardan, ishlab chiqarilayotgan turli rusumdagi avtomobillardan, xalqimizning xushmuomalaligi va mehmondo‘stligidan hayratga tushadi. Sayyohlar yo‘lboshlovchidan aniq va iloji boricha ko‘proq

ma'lumot olishni istaydi. Bu gidlardan o'z ustida astoydil ishlashni, yangiliklardan, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar berayotgan yuksak samaralardan xabardor bo'lishni taqozo etadi. Turli mamlakat, millat va kasb egalari bo'lgan odamlar bilan muloqot yuritish gidlardan xushmuomalalik, sabr-toqat va kengfe'llikni talab qiladi. Sababi hamma sayyoh ham muomalada muloyim bo'lavermaydi. Ba'zilar esa tarixiy joylarda bo'lish tartib-qoidalariga rioya etmasligi mumkin. Biroq ularga hamrohlik qilayotgan gid bu kabi holatlarda asabiylashmasligi, sayohatning oxirigacha shirinso'z bo'lib qolishi darkor. Bunday talablarga javob berish esa oson emas.

Gid o'z mamlakati, uning tarixi va madaniyati, xalqining urf-odat va an'analari, me'moriy obida va yodgorliklar, diqqatga sazovor joylar to'g'risida to'liq va aniq ma'lumotga ega bo'lishi g'oyat muhim. Professional gid chiroyli so'zlashi, o'z fikrini to'g'ri va tushunarli ifodalay olishi, faol, sabrli va zukko bo'lishi zarur [39, 199].

Ayni paytda gid sayohat davomida o'z guruhi uchun javobgar bo'lgani bois, undan favqulodda holatlarda birinchi yordam ko'rsata olish ham talab etiladi. Yana bir muhim jihati, gid o'zining tashqi ko'rinishiga ham alohida e'tibor berishi lozim. Chunki, sayyohlar aynan unga qarab butun mamlakat ahli haqida xulosa chiqarishi mumkin.

Chet ellik sayyohlarga yurtimizning diqqatga sazovor joylarini ko'rsatib, ular haqida shunchaki hikoya qilib berish bilan cheklanmayman, balki jonajon Vatanimiz O'zbekiston bilan faxrlanishimni gaplarimga, suhbatlarimga singdiraman, – deydi samarqandlik gid Sobir Rajabov. – Mamlakatimizga, xususan, Samarqandga keladigan sayyohlarga tarixi necha ming yillarga borib taqaladigan qadimiy shahrimiz, u yerdagi noyob tarixiy obidalar, muqaddas ziyoratgohlar, xalqimizning betakror madaniyati, an'analari, jahon sivilizatsiyasiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' allomalarimiz haqida keng va qiziqarli ma'lumotlar berishga harakat qilaman. Xalqimizning mehmondo'stligi, insonparvarligi, bag'rikeng va mehr-oqibatligi, mamlakatimizda turli millat vakillarining ahil-inoq, hamjihatlikda hayot kechirishi, ayniqsa, ko'plab xorijiy

tillarda erkin soʻzlasha oladigan iqtidorli yoshlarimiz xorijlik sayyohlarda juda katta havas uygʻotadi. Samarqandga keladigan sayyohlar uchun asosan tarixiy obidalarga, muqaddas qadamjolarga, muzey va bozorlarga, milliy hunarmandlik buyumlari tayyorlanadigan ustaxonalarga, bogʻ va xiyobonlarga, zoologiya, botanika va arxeologiya muzeylariga, ishlab chiqarish korxonalariga, shuningdek, xalqimizning oʻziga xos milliy anʼanalari oʻz ifodasini topgan mahalla markazlari va guzarlarga sayohatlar uyushtiramiz. Xorijiy va mahalliy sayyohlarni shahrimizdagi yirik sanoat korxonalari, oliy oʻquv yurtlari faoliyati bilan ham tanishtirish jarayoni gʻoyat qiziqarli oʻtadi.

